**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI INSTITUTI

**«YENGIL SANOAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI va JIHOZLARI » KAFEDRASI**

**Temirova Gulnoz Ibodovna**

5140900 – «YESMT» yo’nalishining talabalari uchun **«Yengil sanoat maxsulotlarini konstruksiyalash» 2-qism** fanidan tajriba mashg’ulotlarni bajarish bo’yicha

# ***U S L U B I Y K O’ R S A T M A***



**BUXORO –2011 y.**

**TAQRIZCHILAR:** Bux YUTMTI «YeSMT va J»
kafedrasi katta o’qit. Abdurahmonova F.A.

Buxoro Yengil sanoat kasb-xunar kolleji
direktori, dos G’afurova N.T.

**TUZUVCHI:** Bux YUTMTIning «YeSMT va J»
kafedrasi assistenti Temirova G. I.

Uslubiy ko’rsatma «YeSMT va J» kafedrasining 20 yil
« » dagi № majlisida muhokama qilindi.

Uslubiy ko’rsatma Bux YUTMTI uslubiy kyengashining 20 yil «___»_________dagi № ____ majlisida muhokama qilindi.

## TAJRIBA ISHI № 1

**Mavzu : Erkaklar yelkali kiyimi model konstruksiyasini ishlab chiqish.**

**Ishning maqsadi:** Sanoatda qo'llaniladigan kiyimi baza asosi konstruksiyasi chizmasini qurishni o'zlashtirish.

**Ishning mazmuni:**

1. Erkaklar pidjakining konstruksiyalarini o'rganish.
2. Erkaklar pidjakining baza asosi konstruksiyasini qurish uchun asosiy o'lchovlarni aniqlash.
3. Pidjakning baza asosi chizmasini chizish uchun hisoblashlarni amalga oshirish.
4. Pidjak chizmasining bazis turini dastlabki hisoblash asosida qurish.
5. Pidjakning baza asosi konstruksiyasi chizmasini qurish.
6. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**


1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.


**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь

**Ishni bajarish uchun qo'yiladigan savollar:**

1. Pidjak qanday detallardan iborat?
2. Pidjak detallarining qirqimlari qanday ataladi?
3. Pidjakning asosiy detallarini chizish uchun **qanday** o'lchovlar kerak?

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1. Talabalar moda jurnallari yordamida erkaklar yordamida erkaklar pidjagining formalari bilan tanishadilar.
2. Erkaklar pidjagining baza asosi konstruksiyasini chizish uchun kerakli o'lchovlarni aniqlaydilar.
3. Baza asosini kurish uchun kerakli hisoblashlarni jadval shaklida bajaradilar.
4. Millimetr qog'ozida 1:2 masshtabda asosiy detallar chizmasini chizadilar.

**Erkaklar tipik gavdasining o'lchamlari (170-100-82)**

| № | **Gavda** o'lcham**ining nomi** | **shartli belgisi** | **kiymati, sm** |
|---|---|---|---|
| 1 | Bo'yning yarim aylanasi | $S_{sh}$ | 20,5 |
| 2 | Ko'krakkning 1-yarim aylanasi | $Sg_{I}$ | 51,2 |
| 3 | Ko'krakkning 2-yarim aylanasi | $Sg_{II}$ | 52 |
| 4 | Ko'krakkning 3-yarim aylanasi | $Sg_{III}$ | 50 |
| 5 | Belning yarim aylanasi | Ct | 41 |
| 6 | Bo'ksaning yarim aylanasi | Sb | 50,5 |
| 7 | Orqa kyengligi | $SH_{s}$ | 20,5 |
| 8 | Ko'krakk kyengligi | $SH_{p}$ | 19 |
| 9 | Yelkaning aylanasi | Opyuv | 32 |
| 10 | Ko'krakk bezi nuqtasi baland-ligi | Vst | 128,2 |
| 11 | Bel nuqtasi balandligi | Vlt | 110,6 |
| 12 | Bel nuqtasi | SHp | 15,6 |
| 13 | Ko'krakk nuqtasi balandligi | Vg | 34,4 |
| 14 | Old tomondan bel chizig'i balandligi | Dtp | 55,8 |
| 15 | Ort tomondan bel chizig'i balandligi | Dts | 45,7 |
| 16 | Qiya yelka nuqtasi balandligi orqa tomondan | Vpk | 49,5 |
| 17 | Qiya yelka nuqtasi balandligi old tomondan | Vpkp | 45,3 |
| 18 | Ort tomondan bel chizig'i balandligi-1 | DtsI | 50,8 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 19 | Old tomondan bel chizig'i balandligi-1 | DtpI | 44,9 |
| 20 | Ko'krakk markazi | Sg | 11,3 |
| 21 | Qo'lning vertikal diametri | dbp | 12,8 |
| 22 | Gavda xolati | Pk | 8,4 |
| 23 | Belning birinchi chuqurligi | GtI | 4,7 |
| 24 | Belning ikkinchi chuqurligi | GtII | 5,6 |
| 25 | Ko'krakkning old-orqa diametri | dpzg | 24,7 |
| 26 | Belning old-orqa diametri | dpzt | 21,7 |
| 27 | Bo'ksaning old-orqa diametri | dpzb | 23,4 |
| 28 | Kiyim uzunligi | Di | 82 |

**Erkaklar pidjagi uchun o'mizga o'tqazma ikki chokli yeng konstruksya asosini chizmasini hisoblash.**

| № | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1. | OR | $V_{ok}$ | 16,8 | 16,8 |
| 2. | OL | $0,5D_r$+(2-3-4) | 0,5x58+3 | 32 |
| 3. | ON | $D_r$ | 58 | 58 |
| 4. | $RR_4$ | SHr v | 20 | 20 |
| 5. | $NN_1$ | SHr n | 14 | 14 |
| 6. | $N_1N_3$ | 0,17 SHrn | 0,17x14 | 2,4 |
| 7. | $RR_1$ | G4 P6 | 5,2 | 5,2 |
| 8. | $OO_2$ | 0,5 004 | 0,5x20 | 10 |
| 9. | $OO_!$ | 0,45 002 | 0,45x10 | 4,5 |
| 10. | $O_2O_3$ | 0,5 02 04 | 0,5x10 | 5 |
| 11. | $O_4R_3$ | 0,36 S4 P4 | 0,36x16,8 | 6 |
| 12. | $O_1O_5$ | 0,33 01 02 | 0,33x5,5 | 1,8 |
| 13. | $O_3O_6$ | 0,25 03 02 | 0,25x5 | 1,25 |
| 14. | $RR_6$ | 0,5 RR4 | 0,5x20 | 10 |
| 15. | $R_6R_7$ | 0,5 R6 R3 | 0,5x14,4 | 7,2 |
| 16. | $R_7R_8$ | 0,05 P6 R3 | 0,05x14,4 | 0,7 |
| 17. | $R_6R_9$ | 0,4.....0,5 | 0,5 | 0,5 |
| 18. | $RR_{10}$ | G4 P9 | 2,2 | 2,2 |
| 19. | $LL_1$ | 1,5 | 1,5 | 1,5 |
| 20. | $L_1L_3$ | SHr | 18 | 18 |
| 21. | $RR_2$ | 4 | 4 | 4 |
| 22. | $L_1L_2$ | 4 | 4 | 4 |
| 23. | $NN_2$ | 4 | 4 | 4 |
| 24. | $R_4R_5$ | 0,45 R4R3 | 0,45x10,9 | 4,9 |
| 25. | $L_3L_5$ | 0,5 R5R51 | 2,25...2,5 | 2,5 |
| 26. | $RR_{20}$ | RR2 | 4 | 4 |
| 27. | $L_1L_{20}$ | L1L2 | 4 | 4 |
| 28. | $NN_{20}$ | NN2 | 4 | 4 |
| 29. | $RR_{12}$ | RR10 | 2,2 | 2,2 |
| 30. | $R_5R_{50}$ | R5R51 | 5 | 5 |
| 31. | $L_3L_{50}$ | L3L5 | 2,5 | 2,5 |
| 32. | $N_3N_{50}$ | N3R5 | 2 | 2 |
| 33. | $O_2O_{20}$ | $Pv._{ok}$ | 0,5 | 0,5 |

**Kiyim erkinligi uchun beriladigan qo'shimcha haqlar**
**(Erkaklar ko'ylagi, yarim jo'ngli kostyumbop mato)**

| № | Qo'shimcha haq nomi | shartli belgisi | kiymati,sm |
|---|---|---|---|
| 1 | Orqa kyengligiga | Psh sp | 1,5-1,7 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2 | Ko'krakk kyengligiga | Pshp | 1,2-1,5 |
| 3 | Bel chizig'i bo'yicha | Pt | 8-10 |
| 4 | Bo'ksa chizig'i bo'yicha | Pb | 4-5 |
| 5 | Yelka aylanasiga | Pop | 9,0-10,0 |
| 6 | Yeng o'mizi erkinligi uchun | Pspr | 3-4 |
| 7 | Orqa yoqa o'mizi kyengligiga | Pshgs | 1-1,5 |
| 8 | Orqa yoqa o'mizi balandligiga | Pvgs | 0,2 |
| 9 | Yeng boshining chinlar normasi | Npos | 0,08-0,1 |
| 10 | Yeng boshining balandligiga | Pvok | 0,9 |
| 11 | namlab-isitib ishlov berishga | Psut | 0,7 |
| 12 | Orqa tomondan bel chizig'i uzunligiga | Pdts | 1 |
| 13 | Ko'krakk markaziga | Psg | 1,5 |
| 14 | Ishlov berishga | Pur | 0,3 |
| 15 | Yelka yostiqchasi balandligiga | Ppl | 1 |

**Erkaklar pidjagi baza asosi konstruksiyasini hisoblash va qurish**

| № | Konstruktiv kesma | Hisoblash formulasi | hisob | natija, sm |
|---|---|---|---|---|
| 1 | AT | Dts+Pdts | 45,5+1 | 46,5 |
| 2 | AG | Vprz+Pspr+1 | 21,5+5+1 | 27,5 |
| 3 | AU | 0,3 Dts | 0,3x45,5 | 13,6 |
| 4 | TB | 0,5 Dts-3,5 | 0,5x45,5-3,5 | 19,3 |
| 5 | AN | Di+P dts | 130+1 | 131 |
| 6 | $Ao_1$ $A_1$ | Ssh/3+Psh | 20,5/3+1,5 | 8,2 |
| 7 | Aao | 0,5...0,7 | 0,5 | 0,5 |
| 8 | Ao $Ao_1$ | 0,5 | 0,5 | 0,5 |
| 9 | $TT_1$ | 0,7 | 0,7 | 0,7 |
| 10 | $A_1A_2$ | $Ao_1$ $A_{1/3}$ +Pshov | 8,2/3+1 | 3,7 |
| 11 | $G_{10}$ $G_{11}$ | SHs+Pshs | 20,4+2,5 | 23 |
| 12 | $G_{11}G_5$ $G_4G_5$ | 10,4+7,5 | 18 | 18 |
| 13 | $G_{11}G_2$ | SHpr:2 | 18/2 | 9 |
| 14 | $G_2G_4$ | $G_{11}G_2$ | 9 | 9 |
| 15 | $G_4G_3$ | SHg+Psh g | 19,2+2,5 | 21,7 |
| 16 | $G_{11}P_2$ | 0,5Dp+9 | 18+9 | 27 |
| 17 | $A_2P_1$ | SHp+2,5 | 15,5+2,5 | 18 |
| 18 | $A_2A_{21}$ | $P_1P_{11}$ | 1 | 1 |
| 19 | $G_{11}P_{31}$ | Pspr+1 | 5+1 | 6 |
| 20 | $A_{21}A_{22}$ | 4 | 4 | 4 |
| 21 | $SS_1$ | 2 | 2 | 2 |
| 22 | $S_2S_3$ | $0,1P_{31}G_2$ +0,7 | 0,1x10,5+0,7 | 1,7 |
| 23 | $P_{11}M_o$ | 65 | 65 | 65 |
| 24 | $P_{30}$ O | $P_{31}G_{11}$ | 6 | 6 |
| 25 | $P_{11}L$ | Dr/2+5 | 65/2+5 | 37,5 |
| 26 | $LL_{11}$ | $OO_{1-1}$ | 26-1 | 25 |
| 27 | MoM | 2 | 2 | 2 |
| 28 | $MM_1$ | SHn.z ruk | 20+1+2 | 23 |
| 29 | $S_{21}S_{31}$ | $0,1P_{32}O1$+0,7 | 0,1x11,5+0,7 | 1,8 |
| 30 | $G_3G_6$ | $0,5G_3G_4$+1 | 0,5x21,7+1 | 11,8 |
| 31 | $G_6G_7$ | Ps.pr | 4.......5 | 5 |
| 32 | $G_8G_{81}$ | 0,05 $G_3$ $G_4$ | 0,05x21,7 | 1,1 |
| 33 | $A_3A_4$ | $A_{01}$ $A_{1+1}$ | 8,7+1 | 9,7 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 34 | Dtp 1+5 | 48,4 | 48,4 | 48,4 |
| 35 | $A_{41}A_5$ | 0,4 Ssh+1 | 0,4x20.5+1 | 9,2 |
| 36 | $A_5A_{60}$ | 2,5 | 2,5 | 2,5 |
| 37 | $G_4P_4$ | 0.5 DP +6,5 | 0,5x36+6,5 | 24,5 |
| 38 | $A_{41}P_{50}$ | SHp+Pshp | 16+2 | 18 |
| 39 | $G_4P_{61}$ | Ps.pr+1 | 5+1 | 6 |
| 40 | $A_{41}A_{42}$ | 4 | 4 | 4 |
| 41 | $S_4S_5$ | 2 | 2 | 2 |
| 42 | $S_6S_7$ | 0,1 $P_{61}$ $G_2$ | 0,1x11+1 | 4,1 |
| 43 | $P_{50}M_{40}$ | 65 | 65 | 65 |
| 44 | $P_{50}O_2$ | $P_{11}O$ | 20 | 20 |
| 45 | $P_{50}L_{20}$ | $P_{11}L$ | | |
| 46 | $O_2O_3$ | 24 | 24 | 24 |
| 47 | $M_3M_4$ | SHn. ruk | 20-1+2 | 21 |
| 48 | $S_{61}$ SM $_{71}$ | $S_6S_7$ | 2,1 | 2,1 |





**TAJRIBA ISHI № 2**

**Mavzu: Model eskizi bo'yicha bel kiyimlarini konstruktiv modellashtirish (shim va yubka)**

**Ishning maqsadi :** Model eskizi bo'yicha shim va yubkani konstruktiv modellashtirishni o'rganish.

**Ishning mazmuni:**

1.Ayollar yubkasining zamonaviy konstruksiyalari xususiyatlari bilan tanishish.
2.SHim konstruksiyasining xususiyatlari bilan tanishish.
3.BK ni shaklini o'zgartirmay yubka va shimni KM
4.Ishning natijalari tahlili va xulosalar.

## Adabiyotlar:

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

## Asbob-uskunalar:

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь,lekalo,uchirgich,qaychi.

## Ishni bajarish uchun qo'yiladigan savollar:

1. Kiyim tukisligi uchun qo'shimcha haqlar
2. Kiyimning tashqi shakli, to'zilishi va konstruksiyasi xarakteristikasi.
3. Kiyimni konstruksiyalash usullari
4. Konstruksii asosi (OK), bazali konstruksiya (BK), modeli konstruksiya (MK).

## Uslubiy ko'rsatmalar

1.Talabalar moda jurnalidan shimlar va yubkalarning konstruksiyasi bilan tanishadilar. SHim va yubka tanlaydilar. Erkaklar shimi va ayollar yubkasining tashqi ko'rinishlarini chizadilar.

2.Konstruktiv modellash (KM) uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlaydilar.

3.Bazali konstruksiyani tanlash me'zonlari BK dan foydalanib KM ni to'rtta xilidan foydalanib, model eskizi bo'yicha yubkani konstruktiv modellashtirishtiradilar.

4.Bazali konstruksiyani tanlash me'zonlari BK dan foydalanib KM ni to'rtta xilidan foydalanib, model eskizi bo'yicha shimni konstruktiv modellashtirishtiradilar

5. Millimetr qog'ozida 1:2 masshtabda asosiy detallar chizmasini chizadilar.

Konussimon kyengaytirish usulida detal tasma-tasma qilib,kesiladi-da,tasmalarning uchlari keriladi, yuqorigi nuqtalari esa juftlashtiriladi yoki chetlari ustma-ust qo'yiladi.



"Model" degan so'z lotincha so'z bo'lib "namuna" ma'nosini bildiradi. Kiyimga taaluqli qilib aytganda model deb rassom-modelьerning fikri va niyati gavdalantirgan kiyimning birinchi namunasi tushuniladi.

## Turli xil yubkalarni modellashtirish



**CHo’ntakli yubkani modellashtirish**



**Kaketkali yubkani modellashtirsh**



**“Klyosh” yubkani modellashtirish**



## TAJRIBA ISHI № 3.

**Mavzu: Model eskizi bo’yicha ayollar kiyimlarini konstruktiv modellashtirish.**

**Ishning maqsadi:** Model eskizi bo’yicha zamonaviy ayollar kiyimlarini konstruktiv modellashtirish.

**Ishning mazmuni:**

1. Ayollar kiyimida vitochkani oddiy ko’chirish usullarini o’rganish.
2. Erkaklar pidjakining ikki chokli yengni asosiy chizmasini chizish va hisoblarini bajarish.
3. Vitochkani sodda ko’chirish quyidagicha olib boriladi: model eskiziga qarab vitochkaning yangi yo’nalishi belgilanadi andaza yangi yo’nalish bo’yicha kesib, eski vitochka yopib, yangi vitochka ochish.
4. Koketkalar, ko’krak bel va son chiziqlari bo’yicha kesmali detallar hosil qilish.
5. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.

2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini  konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova  X.X., Hamraeva  N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Asbob-uskunalar:**

Moda  jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь

## Ishni  bajarish uchun  qo'yiladigan savollar:

1.Ayollar kiyimida  vitochkani  oddiy  ko'chirish usullarini izohlab  bering.

2.Vitochkani  sodda   ko'chirish  quyidagicha  olib   boriladi: model  eskiziga   qarab vitochkaning  yangi  yo'nalishi  belgilanadi andaza yangi  yo'nalish  bo'yicha  kesib, eski vitochka yopib, yangi  vitochka esa  oching.

3.Ayollar  kiyimida  kesilmalarni  taxlamalar   kyengligiga   tyeng  bo'lgan   miqdorga siljiting.

4. Ayollar kiyimida son  chizig'i  bo'yicha  bir  tomonlama  taxlamaning  miqdorga siljiting. Son  chizig'i  bo'yicha  bir  tomonlama  taxlamaning  tipovoy  chuqurligi 6 sm.ga tyeng

5.Ayollar kiyimining yo'nalishga  qarab detallarni gorizontal yoki vertikal bo'laklang.

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1. Talabalar moda  jurnalidagi  yenglarning formasi konstruksiyasi bilan  tanishadilar.
2. O'tqazma  yeng   tanlaydilar.  Erkaklar  pidjagi   va   ayollar  ko'ylagining   tashqi ko'rinishini chizadilar.
3. O'tqazma  yeng asos chizmasini  chizish  uchun  kerakli  o'lchovlarni  aniqlaydilar.
4. Barcha  hisoblashlar  jadval  shaklida  amalga  oshiriladi.

**Milliy ko'ylakni modellash**

| **Texnologiya asosida faoliyat turlari** | **Tavsiya etiladigan moslama va uskunalar** | **CHizma** | **Standart asosida operasiyani bajarish tartibi** |
|---|---|---|---|
| **I** | **II** | **III** | **IV** |
| 1. Ko'ylak va lozim texnik chizmasini (old va ort tomondan ko'rinishini) chizish. | qalam, qog'oz, jurnal. | | Ko'ylak tashqi ko'rinishi chizib olinadi. |
| 2. Ko'ylak tashqi ko'rinishiga yozma tavsif berish. | qalam, qog'oz, jurnal. | | Misolga qaralsin. |
| 3. Ko'ylak asosi konstruksiyasini tayyorlash. | qalam, qog'oz, chizg'ich. |  | Milliy ko'ylak konstruksiyasi 31-modulda keltirilgan ayollar zamonaviy ko'ylagi konstruksiyasi asosida chiziladi. |
| 4.  Ko'ylak chizmasida ort koketka o'rnini belgilash. | CHizg'ich, qalam, qog'oz, sm. lenta. |  | Koketka chizig'i model eskiziga qarab aniqlanadi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5.Orqa yelka vitochkasini koketkasini ulash chizig’iga o’tkazish hamda ort koket konturini chizish. | CHizg’ich, qalam, qog’oz, sm. lenta. | | Yelka vitochkasi uchidan koket chizig’iga to’g’ri chiziq tushiriladi. Vitochka qirqilib yelka vitochkasi yopiladi va koket pastki chizig’i tomonidan ochiladi, orqa koket konturlari qalin chiziq bilan chiziladi. |
| 6. Ko’ylak chizmasida old koketka chizig’i o’rnini belgilash. | CHizg’ich, qalam, qog’oz, sm. lenta. |   | Koketka chizig’i modelь eskiziga qarab aniq belgilanadi.Kaketka chizig’i taxminan yeng o’mizining 0,5 qismini tashkil etadi. |
| 7. Ko’krak vitochkani yangi yo’nalishga - koketka chizig’iga ko’chirish. | CHizg’ich, qalam, qog’oz, sm. lenta. | | Ko’krak vitochka (22-23 va (21-23) chiziqlari bo’ylab va koketka chizig’i bo’yicha qirqiladi. Vitochka yelkada yopilib, koketka chizig’i bo’yicha ochiladi. |
| 8. Old koketka bort chizig’i o’rnini belgilash. | CHizg’ich, qalam, qog’oz, sm. lenta. | | Koketka barlarining bir-birining ustiga o’tish kattaligi 2,5÷3,0 sm ga tyeng. |
| 9. Model eskiziga qarab bo’yin o’mizi modellanadi. YOqa o’mizi yoqali yoki turli o’yiqli qilib loyihalanadi. | CHizg’ich, qalam, qog’oz, sm. lenta. | | Model bo’yicha yoqa loyihalash uchun yoqa konstruksiyasi chiziladi.<br>Koketka yoqasiz bo’lgan holda, yoqa o’mizi chizig’i o’rni aniqlanadi va chiziladi. |
| 10.YOqa chizmasini chizish. | CHizg’ich, qalam, qog’oz, sm. lenta. |   | Eskiz bo’yicha yoqa berilsa, yoqa konstruksiyasi darslik yoki qo’llanma bo’yicha mavjud usullar vositasida chiziladi. YOqa o’lchovlari ko’ylak bo’yin o’mizi o’lchovlari bilan muvofiqlashtiriladi. |
| 11. Ko’ylak chizmasida ko’ylak old va ort etagini (gavda qismi) kyengaytirish. | CHizg’ich, qalam, qog’oz, sm. lenta. |  | Koketkaga ulash chizig’i bo’ylab gazlamadan burma hosil qilishga mo’ljallab ko’ylakning old va ort bo’lak gavda qismini kyengaytirish qo’yimlari istalgancha olinadi. Buning uchun old va ort o’rta chiziqdan o’ng va chap tomonga qo’yim kyengligi qo’yiladi va o’rta chiziqlar yangi o’ringa ko’chiriladi. Ko’ylak etagini minimal kyengaytirish kattaligi 5-10 sm. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 12. Ko'ylak etak chizig'ini to'g'rilash (gorizontal holga keltirish). | CHizg'ich, qalam, qog'oz, sm. lent | | O'zbekcha ko'ylak etak chizig'i gorizontal bo'yicha o'tadi. Buning uchun old etakdan gorizontalgacha bo'lgan a q $N_4$ - $N_5$ masofa koketkani ulash chizig'idan yuqoriga qo'yiladi va koketkani etakka ulash yangi chizig'i loyihalanadi. a q 1,0÷2 sm. |

## TAJRIBA ISHI № 4

### Mavzu: O'tqazma yenglarni konstruktiv modellash usullari

**Ishning maqsadi :**Sanoatda qo'llaniladigan erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarida uchraydigan o'tqazma yenglarni konstruktiv modellash usullari bilan tanishish.

**Ishning mazmuni:**

1. Yeng bichimini o'zgartirib KM usullarini o'rganish.
2. O'tqazma yenglar xarakteristikasini o'rganish.
3. O'tqazma yengli BK asosida konstruktiv modellash.
4. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Yeng bichimini o'zgartirib KM usullari.
2.O'tqazma yenglar xarakteristikasi.
3.O'tqazma yengli BK asosida konstruktiv modellash .
4.Kiyim shakliga qarab uni,KM parametrlarini aniqlash .Mayin (kyeng) hajm-yelkali kiyimlarni BK dan foydalanib modellash.

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1.Talabalar moda jurnalidagi kiyimlarning turli xildagi yenglarining ko'rinishlari bilan tanishadilar.
2. O'tqazma yeng tanlaydilar.
3 Erkaklar pidjagi va ayollar ko'ylagida kiyimning tashqi ko'rinishini chizadilar.

Ayollar kiyimining old bo'laki yuqori qismini modellashtirish usullari: a) vitochkani oddiy ko'chirish.b) gorizontal bo'laklash. v) vertikal bo'laklash.

1) yangi model baza asosining siluet formasi o'zgarishisiz yaratiladi; fakatgina laskanlar, bortlar, yoqalar va hokazolar formasi o'zgaradi xolos;

2) yangi model yaratilishda baza asosining silueti, ya'ni odam komatiga Ko'krakk, bel va son chiziqlari bo'yicha yopishib turish darajasi o'zgaradi;

3) o'mizga utkazib tikadigan yeng baza asosi konstruksiyasi boshqa bichimli yengga o'zgartiriladi (reglan, yaxlit bichilgan); 4) boshqa ko'rinishli yangi model yaratiladi. Texnik modellashtirish usullari to'rt turga bo'linadi: 1) texnik modellashtirishning birinchi turi: vitochkalarni turli yo'nalishlarga ko'chirish, burmalar va taxlamalar hosil qilish, detallarning vertikal va gorizontal bo'linishi, model xususiyatlarini yaratish: yoqa, laskan, bort, kichik detallar. 1. Vitochkani oddiy ko'chirish kiyimning old, orqa, yeng, yubka va shim detallarida olib borilishi mumkin. Vitochkani sodda ko'chirish quyidagicha olib boriladi: model eskiziga

qarab vitochkaning yangi yo’nalishi belgilanadi (shu chiziq bo’yicha) andaza yangi yo’nalish bo’yicha kesiladi, eski vitochka yopiladi, yangi vitochka esa ochiladi.

Taxlamalar loyihalash. Kichik taxlamalar va burmalar vitochkalardan kelib chiqadi.Bir tomonga qarovchi yoki bir biroviga qarovchi taxlamalarni loyihalash uchun taxlamaning joylanishida detalning uzunligi bo’yicha kesilmalar kiritiladi va shu kesilmalar taxlamalarning kyengligiga tyeng bo’lgan mikdorga siljitiladilar. Son chizig’i bo’yicha bir tomonlama taxlamaning tipoviy chuqurligi 6 sm tyeng.

**Model xususiyatlarini kurish.** Kiyim konstruksiyasining moda yo’nalishiga mos bo’lganiga laskanlar, bortlar, cho’ntaklar kabi model xususiyatlarini baza asosga o’tkazish katta ahamiyatga egadir.



**Kiyim detallarini (a) –parallel va (b) konussimon kyengaytirish usullari**

Model xususiyatlarining konturlarini chizmaga o’tkazish davrida masshtabli o’tishdan foydalinadi.

Detallarini bo’laklash usuli. Detallarni bo’laklash kiyimga shakl berishi jarayonida katta ahamiyatga egadir.

Yo’nalishiga qarab, detallar gorizontal va vertikal bo’laklanishlari mumkin. Gorizontal bo’laklash yuli bilan turli koketkalar, Ko’krakk, bel va son chiziqlari bo’yicha kesmali detallar olish mumkin. Vertikal bo’laklash bilan esa turli shakldagi relьeflar hosil qilish mumkin.
Rasmda «fonarik» yeng ko’rsatilgan.Bunday yengning boshi ham, uchi ham burmali bo’ladi va yeng uchiga rulik tutiladi.




«Fonarik» yeng hosil bo’lishi uchun, yengining asosiy andazasini o’rtasidan kirkib ,orasini istagancha ochish mumkin.Misolimizda yeng boshi va yeng uchi 8 smdan kyengaytirilgan.

## TAJRIBA ISHI № 5

**Mavzu: Yoqalar va bo’yin o’mizini bezash elementlari konstruksiyalarini ishlab chiqish.**

**Ishning maqsadi :** Erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarining yoqalari va bo’yin o’mizini bezash elementlari konstruksiyalarini ishlab chiqish usullari bilan tanishish.

**Ishning mazmuni :**

1. YOqalarning asosiy konstruksiyasi va ularni qurish usullari bilan tanishish.
2. YUqorigacha qadaladigan ko’ylaklar yoqasi chizmasini qurish prinsiplari va usullari.
3. Bo’yni ochiq ko’ylaklar yoqasini chizmalari qurish prinsiplari.
4. YOpishib turadigan yoqani qurish prinsiplari.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, qaychi, kley, o'lchov lentasi.

**Ishga tayyorlanish uchun savollar:**

1. YOqa deb nimaga aytiladi?
2. YOqa qanday detallardan tayyorlanadi?
3. Sizga tanish bo'lgan qanday yoqalarni bilasiz?
4. Kiyimlardan qanday qistirmalar uchraydi?
5. YOqa va bo'yin orasida qanday boshg'lanishlar bor?
6. YOqani uchun qanday o'lchamlar kerak?

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1.Talabalar moda jurnalidagi kiyimlarning turli xildagi yoqalarining formasi bilan tanishadilar.

2. YOqalar va bo'yin o'mizini bezash elementlari konstruksiyalarini ishlab chiqadilar.

3.Erkaklar pidjagi va ayollar ko'ylagida kiyimning tashqi ko'rinishini chizadilar.

4.Tekis yotadigan, yapalok yoqaning asos chizmasini chizish uchun kerakli o'lchovlarni aniqlaydilar va konstruksiyasini ishlab chiqadilar.

5.Tik yoqa chizmasini kuradilar.

Ayollar kiyimining yoqalari o'zining tashqi ko'rinishi bo'yicha to'rt guruhga bo'linadi:



**Tekis yotadigan, yapaloq yoqani qurish.**

Vertikal o'rnatilgan tik yoqalar, kiyimning yelka qismiga yopishib turadigan yapaloq yoqalar, tik va qaytariladigan qismlardan iborat qaytarma yoqalar, yuqorida aytib o'tilgan yoqalardan hosil bo'lgan turli xil fantaziya - yoqalar. YOqa o'miziga biriktirish usuliga qarab yoqalar yaxlit bichilgan va o'mizga o'tqazma yoqalarga bo'linadilar. YOqalar tepagacha takiladigan va laskanli kiyimlar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Pidjak tipidagi yoqalarni va qaytarma yoqalarni kiyimning yoqa o'mizi chizmasida quradilar, qolgan yoqalar alohida qurilishi mumkin.



**Tik yoqa chizmasini kurish.**

YApaloq yoqani kiyimning old va orqa detallarining yelka choklari $A_4$ nuqtada solishtirilgan yoqa o'mizi chizmasida chiziladi .Yelka choklarining yeng o'mizidagi uchlari 3-4 sm ga bir-biroviga kiradi. Old bo'lakning markaziy chizig'ida joylashgan A6 nuqtasini 0,5-1 sm ga pasaytiradilar. YOqa uchlarini modelga qarab chizishadi.

Tik yoqa silindrik yoki konik shaklda bo'lishi mumkin. Silindrik shaklidagi tik yoqaning yoyilmasi to'g'ri burchakli to'rtburchak shaklida bo'lib, uning uzunligi old va orqa yoqa o'mizi yoylari uzunligiga tyeng, balandligi esa modelga qarab olinadi.

**$AV = D_{g.s} + D_{g.p}$; $AV = 3\text{-}3.5$ sm.**

bu erda, $D_{g.s}$ - orqa yoqa o'mizining uzunligi; $D_{g.p}$ - old yoqa o'mizining uzunligi.

Tik yoqalarga konus shaklini berish uchun yoqaning o'rtasidan boshlab yoqaning pastki chokining uchini 1-3 sm ga ko'taradilar.

SHuni ta'kidlash kerakki yoqaning pastki chokining o'miz shaklidan qat'iy konstruktiv bog'liqligi yuk. Bir shakldagi yoqa o'miziga turli shakldagi tik yoqalarni qurish mumkin. Pastki choki do'ppaygan tik yoqalar koniksimon yoqalarni, to'g'ri chokli-silindrik va botiq **chokli - voronkasimon tik yoqalarni hosil qiladilar.**



**Tik yoqalar variantlari.**



**Kesma tik qismli yoqa.**



**Tepagacha qadaladigan kiyim yoqasi.**

**KESMA TIK ASOSLI QAYTARMA YOQALAR.**

YApaloq va tik yoqalarni ko'rinishini biriktirgan .YOqaning o'rta choki OV 4-8 sm ga ko'tariladi .YOqaning uzunligi AV ogma chiziq bo'yicha qo'yiladi:

$AV = D_{g.s} + D_{g.p}$

YOqaning tik qismi $VV_1 = AA_2 = 2{,}5\text{-}4$ sm YOqaning qaytarma qismining kyengligi $VV_2=6\text{-}10$ sm. YOqaning uchi va chetlari modelga qarab chiziladi.

**TEPAGACHA TAKILADIGAN YOQA.**

YOqaning balandligi bo'yicha konstruktiv kesmalarning qiymatlari quyidagicha: yoqaning o'rta chokining ko'tarilishi OV = 8-9 sm; tik qismining balandligi $VV_1=4\text{-}4{,}5$ sm; qaytarma qismining kyengligi $V_1V_2 = 10\text{-}14$ sm; tik qismining qayrilgan mikdori 2-2,5 sm ga tyeng.Yoqaning uzunligi **$VA = D_{g.s} + D_{g.p}$**

Yoqa uchlari va chetlari modelga qarab chiziladi.

## TAJRIBA ISHI №6

### Mavzu: Kapyushon konstruksiyasini qurish.

**Ishning maqsadi :** Erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarida uchraydigan kapyushon konstruksiyasini ishlab chiqish usullari bilan tanishish.

**Ishning mazmuni :**

1. Kapyushonning asosiy konstruksiyasi va uni qurish usullari bilan tanishish.
2. Kapyushon konstruksiyasini qurish uchun kerak bo'ladigan o'lchamlarni aniqlash.

3. Kapyushon konstruksiyasini qurish.
4. Ishning tahlili

**Adabiyotlar :**


1. Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2. Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3. Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.


**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, qaychi, kley, o'lchov lentasi.

**Ishga tayyorlanish uchun savollar:**

1.Kapyushon nima va u kiyimlarda qanday vazifani bajaradi?
2. Kapyushon konstruksiyasini qurish uchun kerak bo'ladigan o'lchamlar.
3. Kapyushon konstruksiyasini qurish.
4. Kapyushon kiyimlarning qaysi qismida bo'ladi?
5.Kapyushon uzunligi qanday aniqlanadi?

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1.Talabalar moda jurnalidagi kiyimlarning turli xildagi kapyushonlari bilan tanishadilar.
2.Bolalarning kapyushonli kiyimining tashqi ko'rinishini chizadilar.
3. Kapyushon konstruksiyalarini ishlab chiqadilar.

To'g'ri burchak chizib, burchak uchiga A harfi qo'yiladi .A nuqtadan pastga 26 sm uzunlikda to'g'ri chiziq tushirilib uchiga N harfi qo'yiladi.A nuqtadan o'ngga 24 sm uzunlikda chiziq tortib, uchiga K harfi qo'yiladi. K nuqtadan pastga 32 sm uzunlikda chiziq tushirilib, uchiga $N_1$ nuqta qo'yiladi.N nuqta $N_1$ nuqtaga punktr chiziq yordamida tutashtiriladi. Kapyushonning yuqori vitachkasi.A nuqtadan pastga va yuqoriga 6 smdan o'lchab, $K_1$ va $K_2$ nuqtalar qo'yiladi.$K_1$ nuqtadan o'ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chizilib, $K_2$ nuqtadan pastga gorizontal chiziq bilan kesishguncha to'g'ri chiziq tushiriladi, chiziqlar kesishgan nuqta $K_3$ bilan belgilanadi.$K_1$ nuqtadan 1 sm yuqoriga 1 raqami , $K_2$ nuqtadan chapga 2 raqami qo'yiladi.$K_1$ va $K_2$ nuqtalar $K_3$ nuqtaga sal egri chiziq yordamida tutashtiriladi. Kapyushonning yuqori chizig'i.K nuqtadan 2 sm pastga $K_4$ nuqta qo'yiladi.$K_4$, $K_2$ va 2 nuqtalar chiziq yordamida birin ketin tutashtiriladi. Kapyushonni yoqa o'miziga tikish chizig'i va pastki vitachka nuqta N1 nuqtadan chapga 5 sm o'lchab olib, $N_2$ nuqta qo'yiladi.N nuqtadan o'ngga 7 sm o'lchab, 7 raqami qo'yiladi.7 nuqtasidan 2 sm o'ngga 2 raqami qo'yiladi.7 nuqtasi ,bilan 2 nuqtasi oralig'i tyeng ikki qismga bo'linib, bo'lish nuqtasidan yuqoriga 6 sm uzunlikda tik chiziq chiqarilib,uchiga 6 raqami qo'yiladi.7 va 2 nuqtalaridan 1sm yuqoriga 1 raqamlari qo'yiladi.1 va 1nuqtalari 6 nuqtasiga , N va $N_2$ nuqtalariga tutashtiriladi.Kapyushonning oldingi chizig'i.$K_4$ nuqta bilan $N_1$ nuqta oralig'i tyeng ikki kesimga bo'linadi. Bo'lish nuqtasidan 1 sm chapga 1 raqami qo'yiladi.$K_4$,1 va $N_2$ nuqtalari chiziq yordamida o'zaro tutashtiriladi.






## TAJRIBA ISHI №7

**Mavzu: Ayollar ko'ylagining turli shakldagi yelka kamarli va modifikasiyalashgan yeng o'mizini ishlab chiqish (old va ort bo'lak).**

**Ishning maqsadi :** Ayollar ko'ylagining turli shakldagi yelka kamarli va modifikasiyalashgan yeng o'mizini ishlab chiqishni o'rganish.

**Ishning mazmuni:**

1. Ayollar ko'ylagining turli shakldagi yelka kamarli va modifikasiyalashgan yeng o'mizini ishlab chiqish usullarini o'rganish.

2. Ayollar ko'ylagining turli shakldagi yelka kamarli va modifikasiyalashgan yeng o'mizlarini ishlab chiqish xarakteristikasini o'rganish.

3. Ayollar ko'ylagining turli shakldagi yelka kamarli va modifikasiyalashgan yeng o'mizini ishlab chiqish.

4.Ishning tahlili.

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1.Modifikasiya so'ziga tushuncha bering?

2.Yeng o'mizini ishlab chiqish uchun qaysi o'lchamlardan foydalaniladi?

3 Modellashtirish uchun mos keladigan baza asosi qanday tanlanadi?

4 Baza asosini o'zgartish variantlari turlari?

5 Kostruktiv modellashtirish usullarini aytib bering?

6. Vitochkalarni oddiy ko'chirish usuliga izoh bering?

**Adabiyotlar:**

1oblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.

2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.

3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1.Talabalar moda jurnalidagi kiyimlarning turli xildagi ayollar ko'ylagining turli shakldagi yelka kamarli va modifikasiyalashgan yeng o'mizlarining formasi bilan tanishadilar.

2. Ayollar ko'ylagining turli shakldagi yelka kamarli va modifikasiyalashgan yeng o'mizlarini konstruksiyalarini ishlab chiqadilar.

3. Ayollar ko'ylagining turli shakldagi yelka kamarli va modifikasiyalashgan yeng o'mizli kiyimining tashqi ko'rinishini chizadilar.

4.Barcha hisoblashlar jadval shaklida amalga oshiriladi.

**Konstruktiv qo'shimchalari qiymati**

| qo'shimchalar nomi | qo'shimchalarning shartli belgilari | Gavdaga yopishib turish darajasiga mo'ljallangan qo'shimchalar |
|---|---|---|
| Yeng o'miz kyengligiga | $PSH_{yeng.o'm}$ | 1.5÷2.5 |
| Orqa bo'yin o'miz kyengligiga | $PSH_{ar.bo'y.o'm}$ | 0.5÷1.0 |
| Orqa bo'yin o'miz balandligiga | $PV_{orbo'y.o'm}$ | - |
| Orqa belgacha uzunligiga | $PD_{or.bel}$ | 0.5 |
| Old belgacha uzunligiga | $PD_{oldbel}$ | 0.5÷0.6 |

**Bemalollik qo'shimchasining konstruksiya bo'laklariga taqsimlanishi**

| Bemalollik qo'shimchasining qiymati, sm | Ort bo'lak 30% | Yeng o'mizi 50% | Old bo'lak 20% |
|---|---|---|---|
| 5.0 | 1.5 | 2.5 | 1.0 |
| 6.0 | 1.8 | 3.0 | 1.2 |
| 7.0 | 2.1 | 3.5 | 1.4 |
| 9.0 | 2.7 | 4.5 | 1.8 |

Kiyim inson tanasini atrof muhitning har xil ta'sirlaridan asrash vositasi sifatida paydo bo'lgan.

Kiyimning yakka buyurtma yo'li bilan bilan tikishda o'lchab-hisoblab konstruksiyalash metodi juda mos keladi, chunki bu metod aniq o'lchangan tufayli gavdaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.



Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida kiyim deb, o’simlik, hayvonot va sun’iy materiallardan tayyorlanadigan va odamni atrof-muhitning nomaqbul ta’sirlaridan asraydigan, organizmning normal sog’lom holatini saqlaydigan va bezak vazifasini o’taydigan har xil narsalar aytiladi. Kiyim insoniyat moddiy madaniyatining elementlaridan biri hisoblanadi. Kiyimni konstruksiyalash-bu murakkab jarayon. Bu tikuvchilik buyumlarini loyihalash umumiy jarayonning tarkibiy qismi bo’lib, bu ishda model’er-rassomlar, konstruksiyalar, materialshunoslar, texnologlar singari ko’plab mutaxassislar mehnat qiladi.Konstruksiya asosining chizmasini hisoblash va tuzish metodini tanlash ishlab chiqarish spesifikasiyasiga bog’liq.



Hozirgi vaqtdagi hamma o’lchab-hisoblab va proporsional-hisoblab tuzish metodlari kiyim bo’laklarini chizmasini tuzishning tarkibiy usulidir. YAngi modelning manekenda yoki gavdada yaxshi turishiga kiyimni kiydirib ko’rish yo’li bilan erishiladi.

**164-96-100 razmerining qomatdan olingan o’lchamlari.**

| № | qomat o’lchamlarining nomi | Belgilar | qomat o’lchamining miqdori |
|---|---|---|---|
| 1. | Bo’y | R | 164 |
| 2. | Bo’yin asos nuqta balandligi | $V_{b\,a\,n}$ | 140.6 |
| 3. | Bo’yin nuqta balandligi | $V_{b.n}$ | 141.7 |
| 4. | Yelka nuqta balandligi | Ve.n | 135.4 |
| 5. | Orqa qo’ltiq osti burchagining balandligi | $V_{oqob}$ | 18.6 |
| 6. | Ko’krak balandligi | $V_k$ | 39.4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7. | Bo'yin aylanasi | $O_b$ | 19.8 |
| 8. | Ko'krakning birinchi aylanasi | $O_KI$ | 51.5 |
| 9. | Ko'krakning ikkinchi aylanasi | $O_KII$ | 58 |
| 10. | Ko'krakning uchinchi aylanasi | $O_kIII$ | 56 |
| 11. | Bel aylanasi | $O_{bel}$ | 46.3 |
| 12. | Bo'ksa aylanasi | $O_{bo'k}$ | 58 |
| 13. | Yelka aylanasi | $O_{el}$ | 34.8 |
| 14. | Yelka kyengligi | $SH_{el}$ | 13.6 |
| 15. | Gavda old qismining belgacha uzunligi | $D_{old.bel}$ | 46.2 |
| 16. | Orqa yeng o'miz balandligi | $V_{ort.yeng.o'miz}$ | 18.6 |
| 17. | Ko'krak to'rtib chiqqan nuqtalarini hisobga olgan holda ort bo'lak uzunlik | $D_{or.bel}$ | 40.8 |
| 18. | Yelka qiya balandligi | $V_{yelka.qIya}$ | 45.3 |
| 19. | Orqa bel chizig'idan bo'yin asos nuqtasigacha bo'lgan oraliq | $D_{or.bel1}$ | 44.3 |
| 20. | Ko'krak kyengligi | $SH_k$ | 18.8 |
| 21. | Ko'krak markazi | $S_k$ | 11.4 |
| 22. | Gavda ort qismining kyengligi | $SH_{or}$ | 20 |
| 23. | Tirsakkacha qo'l uzunligi | $D_{qo'l.tir}$ | 32.6 |
| 24. | qo'lning bilakkacha uzunligi | $D_{qo'l.bil}$ | 56.4 |

**Ko'krak, bel va bo'ksa aylanasi qo'shimchalari**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Ko'krak aylanasi | $PO_k$ | 1.5-2.5 |
| 2 | Bel aylanasi | $PO_{bel}$ | 0.5-1 |
| 3 | Bo'ksa aylanasi | $PO_{bo'ksa}$ | 0-0.5 |
| 4 | Yelka aylanasi | $PO_{yelka}$ | 2.5-3.5 |

**Ayollar ko'ylagi asos chizmasiga beriladigan konstruktiv qo'shimchalar qiymati**

| | | |
|---|---|---|
| Ko'krak chizig'i bo'ylab | | |
| -orqa | $P_{orqa}$ | 1 |
| -yeng o'mizi | $PSH_{yeng.o'miz}$ | 2.5 |
| -old | $P_{old}$ | 1 |
| -bel aylanasi | $PO_{bel}$ | 2 |
| -bo'ksa aylanasi | $PO_{bo'ksa}$ | 1 |
| -yelka aylanasi | $PO_{yelka}$ | 5 |
| -proyma chuqurligi | $PG_{yeng.o'miz}$ | 4 |
| -kurak to'rtib chiqqan nuqtalarini hisobga olgan holda ort bo'lak belgacha uzunlik | $PD_{ort.bel}$ | 1 |
| -orqa bel chizig'idan bo'yin asos nuqtasigacha bo'lgan oraliq | $PD_{ort.bel1}$ | 1 |
| -gavda old qismining belgacha uzunligi | $PD_{old.bel}$ | 1.5 |
| -ko'krak balandligi | $PV_k$ | 0.7 |
| -ko'krak markazi | $PS_k$ | 0.3 |

**Ayollar ko'ylagi asos konstruksiyasini qurish**

| Konstruktiv bo'lak belgisi | Siljitish yo'nalishi | Hisob formulasi va hisoblar | Konstruktiv bo'lak qiymati |
|---|---|---|---|
| Ayollar ko'ylagi bazis gorizontal to'g'ri chiziqlarini aniqlash | | | |
| 1-2 | Gorizontal bo'yicha o'ngga→ | 1-2qSHelqPSHelq18.2q1 | 19.2 |
| 2-3 | Gorizontal bo'yicha o'ngga→ | 2-3q$d_{old.ort.qo'l}$qP $d_{old.ort.qo'l}$q10.8q2.5 | 13.3 |
| 3-4 | Gorizontal bo'yicha | 3-4qSHkq($Ok_{II}$-Ok1)q17.2q(50.2-45.7) | 21.7 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | o’ngga→ | | |
| 1-4 | Gorizontal chiziq | 1-4q19.2q13.3q21.7 | 54.2 |
| Ayollar ko’ylagi bazis vertikal to’g’ri chiziqlarini aniqlash | | | |
| 1G | Vertikal bo’yicha ↓ | 1GqV$_{ort.yeng.o’m}$qPV$_{ort.yeng.o’m}$q17.8q4 | 21.8 |
| 1T | Vertikal bo’yicha ↓ | 1TqD$_{old.bel}$qPD$_{old.bel}$q40.4q1 | 41.4 |
| TB | Vertikal bo’yicha ↓ | TBq0.5D$_{ort.bel}$q0.5*40.4 | 20.2 |
| 1N | Vertikal bo’yicha ↓ | 1Nq110q2 | 112 |
| Ort bo’lak | | | |
| 1-5 | Gorizontal bo’yicha o’ngga→ | 1-5q1\|3S$_{bo’yin}$qPO$_{bo’yin}$q18.3:3q1 | 7.1 |
| 5-6 | Vertikal bo’yicha yuqoriga ↑ | 5-6q1\|4(1-5)q0.5q7.1:4q0.5 | 2.1 |
| 6-7 | Vertikal bo’yicha pastga ↓ | 6-7qV$_{yelka}$ | 6.4 |
| 7-8 | Vertikal bo’yicha o’ngga → | 7-8qSH$_{yelka}$ | 13.3 |
| 8-9 | Vertikal bo’yicha o’ngga→ | P$_{salqi}$q8-9q2.5q0.5 | 3 |
| 6-8 | qiya chiziq ↘ | 6-8qSH$_{elk}$qP$_{vitoch}$qP$_{salqi}$q13.3q2.5q0.5 | 16.3 |
| 1-10 | Gorizontal bo’yicha pastga ↓ | 1-10q0.3(D$_{ort.bel}$qPD$_{ort.bel}$)q0.3(40.4q1) | 12.4 |
| 10-11 | Vertikal bo’yicha o’ngga→ | 10-11q0.5(SH$_{ort}$qPSH$_{ort}$)q0.5(18.2q1) | 9.6 |
| 6-12 | | 6-12q1\|4 6-8q1\|4*16.3 | 4.0 |
| TT$^1$ | T nuqtadan gorizontal bo’yicha o’ngga→ | TT$^1$ q1.0 ÷1.5 sm | |
| 12 nuqtadan pastga | 12 va 11 nuqtalar birlashtirilib vitochka uzunligi 9÷11 sm o’lchab, 14 nuqta qo’yiladi. 14-12 to’g’ri chiziqdan yuqoriga 0.5÷1 sm ko’tarib, 13 nuqta beligalnadi. 13 nuqtadan vitochka kyengligi 2.5 sm kyenglikda radius bilan belgilanadi. 14-13 vitochkaning chap tomoni bilan o’ng tomoni tyenglashtirilib 15 nuqta bilan belgilanadi. | | |
| T$_4$-16 | T$_4$ nuqtadan vertikal bo’yicha pastga ↓ | T$_4$-16q1÷2.5 | 1.0 |
| 16-17 | Gorizontal bo’yicha yuqoriga ↑ | 16-17D$_{old.bel}$qPD$_{old.bel}$44.3q1.5 | 15.8 |
| 17-18 | Gorizontal bo’yicha chapga← | 17-18q17-18q1q7.1q1 | 8.1 |
| 18-20 | Gorizontal bo’yicha pastga↓ 20 nuqtadan chapga gorizontal chiziq chiziladi va unda 18 nuqtadan SHyelka o’lchami kattaligi yoy belgilanadi. | 18-20q6-7-1.5q6.4-1.5 | 4.9 |
| 18-21 | 18 nuqtadan yoy ↙ | 18-21qRqSH$_{yelka}$ | 13.6 |
| 16-22 | Gorizontal bo’yicha chapga ← | 16-22qS$_k$qPS$_k$q10.1q0.3 | 10.4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 22-23 | Vertikal bo'yicha yuqoriga ↑ | 22-23q($D_{old.bel}$-$V_k$)q0.5P$V_k$q(53-35.3)q0.8 | 18.5 |
| | 23 nuqtadan chap tomonga 23-18 vitochka o'ng tomoni uzunligi o'lchab qo'yiladi va 24 nuqta belgilanadi. | | |
| 18-24 | Vitochka kyengligi | 18-24q2($S_{kII}$-$C_{kI}$)q1q2∗(50.2-45.7)q1 | 10.0 |
| | 23 nuqtadan 23-21 oraliq kattaligi bilan yoy belgilanadi. 24 nuqtadan SHyelkaq13.6 kattalikda ikkinchi yoy belgilanadi va 25 nuqta olinadi. 25 nuqta 24 nuqta bilan to'g'ri chiziq orqali birlashtiriladi. | | |
| **Yeng o'mizi** | | | |
| $R_1$ | Ort bo'lak pastki qismida radius bilan yoy o'tkaziladi | $R_1$q0.55$SH_{yeng.o'm}$-0.55∗13.3 | 7.3 |
| $R_2$ | Old bo'lak pastki qismida radius bilan yoy o'tkaziladi. | $R_2$q0.45∗$SH_{yeng.o'm}$q0.45∗13.3 | 6 |
| | $G_3$2 gorizontal bilan $R_1$ radiusning kesilish nuqtasi $P_3$ nuqta bilan belgilanadi.<br>$G_3$3 gorizontal bilan $R_2$ radiusning kesilish nuqtasi $P_6$ nuqta bilan belgilanadi.<br>$P_3$ nuqta 9 nuqta bilan egri chiziq orqali birlashtriladi.<br>$P_6$ nuqta 25 nuqta bilan egri chiziq orqali birlashtiriladi. | | |
| **YOn qirqim va bel vitochkalari** | | | |
| EV | | EVqSHk-(SbelqPbel)q54.2-(37.0q3) | 14.2 |
| | Ort bo'lak vitochka kyengligi | 0.25ΣVq0.25∗14.2 | 3.6 |
| | Old bo'lak vitochka kyengligi | 0.45ΣVq0.45∗14.2 | 6.4 |
| | Ort o'rta chizig'idan o'ngga → | $TT_1$ | 10.0 |
| $TT_1^1$ | $T_1$ nuqtadan vertikal yuqoriga ↑ | $TT_1^1$ | 17.0 |
| 16-$T_3$ | 16 nuqtadan gorizontal bo'yicha chapga ← | 16-$T_3$ | 9.0 |
| 23-$T_3$ | 23 nuqtadan pastga belgilanadi ↓ | 23-$T_3$ | 1.0 |
| $G_5$ | Ort bo'lak yon chizig'i ort bo'lak kyengligi belgilovchi $G_2$2 gorizontal chiziqdan 4 sm o'ngda belgilanadi. | | |
| | YOn chiziq qiyaligi | 0.3ΣVq0.3∗14.2 | 4.2 |
| $NN_5$ | N nuqtadan gorizontal bo'ylab o'ngga → | $G_5$ nuqta etak chizig'igacha davom ettirilib $N_5$ nuqta qo'yiladi | |
| $N_4N_4^1$ | $N_4$ nuqtadan vertikal bo'ylab pastga ↓ | $N_4N_4^1$q1.0 sm | 1.0 |
| | $N_5$ va $N_4^1$ nuqtalar birlashtirilib old bo'lak etak chizig'i chiziladi | | |

## TAJRIBA ISHI №8

**Mavzu: Namunani primerka qilish, konstruktiv nuqsonlarni aniqlash va bartaraf qilish.**

**Ishning maqsadi :** Namunani primerka qilish, konstruktiv nuqsonlarni aniqlash va bartaraf qilishni o'rganish.

**Ishning mazmuni:**

1. Kiyimlarni kiydirib ko'rish usullarini o'rganish.
2. Namunani primerka qilish, konstruktiv nuqsonlarni aniqlash va bartaraf qilishni o'rganish.
3. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Nima uchun tikilayotgan kiyim kiydirilib ko'riladi
2. Kiyimni kiydirib qurish uchun qaysi detallar ko'klanadi
3. Old yoqa o'mizidagi nuqsonlar qanday yo'qotiladi
4. Yeng qiyamasidagi ko'ndalang solqi qanday yo'qotiladi

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1.Talabalar turli xildagi kiyimlarda uchraydigan nuqsonlar bilan tanishadilar.
2. Kiyimlarda uchraydigan turli xil nuqsonlarni bartaraf qilish usullarini ishlab chiqadilar.
3. **K**iyimlarda uchraydigan turli xil nuqsonlarni bartaraf qilish usulini ko'rsatadilar.

YAkka buyurtma usulida kiyim tikish uchun kiyimni buyurtmachiga bir yoki ikki marta kiydirib ko'riladi.Necha marta kiydirib ko'rilishi modelning murakkabligiga bog'liq.Kiyimni kiydirib ko'rishdan maqsad detal konstruksiyalarini aniqlash, kiyimni odam gavdasiga moslash va buyurtmachi talabini qondirish.

Yelka chok old tomonga o'tib,ort bo'lak gavdaga yopishmay ko'tarilib turgan bo'lsa, old bo'lak yoqa o'mizining eng yuqori nuqtasi pastroq tushib, ort bo'lak yeng o'mizi kaltaroq bichilgan bo'ladi.Bu kamchilikni yo'qotish uchun old bo'lakning yelka qirqim tomondagi moslash haqining hammasi chiqariladi.Yelka qirqim tomonda moslash haqi bo'lmagan taqdirda, old bo'lak etak tomondan yoki bel qismidagi moslash haqi chiqarib yuboriladi va yon chok tomondan old bo'lak yuqoriga ko'tariladi, yoqa va yeng o'mizlari o'yiladi.





Gorizontal taxlamalar Vertikal taxlamalar Qiya taxlamalar

Yelka chok ort tomonga o'tib, old bo'lak ko'tarilib qolgan bo'lsa, ort bo'lak yoqa o'mizi kam o'yilgan va yeng o'mizi kalta bo'ladi.Bunda ort bo'lak yoqa o'mizi va yelka qirqimi tomondagi moslash haqi chiqariladi.Buning uchun ort bo'lakning yon chokini ko'tarib, yeng o'mizi va yoqa o'mizi ko'proq o'yiladi.Kiyim yelka qismi yeng o'mizi tomonga pasayib ketgani natijasida old bo'lak yoqa o'mizi yaqinida solqilar hosil bo'ladi, nuqsonni yo'qotish uchun old bo'lakning yelka chok tomondagi moslash haqi chiqariladi.

**TAJRIBA ISHI №9**

**Mavzu: Yeng qiyamasi past bo'lgan erkaklar ko'ylagi yengi bichimdagi kiyimlar uchun model konstruksiyasini ishlab chikish**

**Ishning maksadi :** Yeng qiyamasi past bo'lgan erkaklar ko'ylagi yengi bichimdagi kiyimlar uchun model konstruksiyasini ishlab chiQishni o'rganish.

**Ishning mazmuni:**

1. Erkaklar ko'ylagi konstruksiyasi bilan tanishish.
2. Yeng qiyamasi past bo'lgan erkaklar ko'ylagi konstruksiyasini o'rganish.
3. Ishning tahlili.

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Yeng qiyamasi nima?
2. Yeng kyengligi qanday aniqlanadi?
3. Yeng uzunligi qanday aniqlanadi?

**Adabiyotlar:**


1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.


**Uslubiy ko'rsatmalar**

1. Talabalar moda jurnalidagi kiyimlarning turli xildagi yenglarining formasi bilan tanishadilar.
2. Erkaklar ko'ylagining tashqi ko'rinishini chizadilar.
3. Yeng konstruksiyalarini ishlab chiqadilar.
4. Barcha hisoblashlar jadval shaklida amalga oshiriladi.

**Erkaklar tipik gavdasining o'lchamlari**

| **№** | **Gavda o'lchamining nomi** | **shartli belgisi** | **kiymati, sm** |
|---|---|---|---|
| 1 | Bo'yning yarim aylanasi | $S_{sh}$ | 19,5 |
| 2 | Yelka kyengligi | $SH_{plech}$ | 16 |
| 3 | Ko'krakning yarim aylanasi | Sg | 48 |
| 4 | Orqa uzunlik | $D_{sp}$ | 38 |
| 5 | Yelkaning aylanasi | Opyuv | 32 |
| 6 | Kiyim uzunligi | Di | 80 |
| 7 | Yeng uzunligi | $D_r$ | 60 |

**Erkaklar ko'ylagi asos konstruksiyasini qurish**

| **Konstruktiv bo'lak belgisi** | **Siljitish yo'nalishi** | **Hisob formulasi va hisoblar** | **Konstruktiv bo'lak qiymati** |
|---|---|---|---|
| | **Ko'lak uzunligi** | | |
| AN | A nuqtadan↓ N | Di | 80 |
| | **Yeng o'mizining chuqurligi** | | |
| AG | A nuqtadan ↓ G → ixtiyoriy chiziq chiziladi**.** | $S_g$:3+9 | 25 |
| AT | A nuqtadan ↓T | $D_{sp}$ +2 | 40 |
| $GG_2$ | G→ $G_2$ | Sg:3+7 | 23 |
| | $G_2$ ↑ gorizontal chiziq bilan kesishadigan qilib, tik chiziq chiqarib,chiziqlar kesishgan nuqta P | | |
| | **Yeng o'mizining kyengligi** | | |
| $G_2$ $G_3$ | $G_2$ →$G_3$ | Sg :4+2 | 14 |
| | $G_3$ ↑ gorizontal chiziq bilan kesishadigan qilib, tik chiziq chiqarib, chiziqlar kesishgan nuqta $P_1$ | | |
| | **Ko'lak kyengligi** | | |
| $GG_4$ | G→ $G_4$ | Sg +12 | 60 |
| | $G_4$ ↑↓ chiziq chiziladi:uning↑ gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqtasi SH, bel chizig'i bilan kesishgan nuqtasi $T_1$, etak chizig'i bilan kesishgan nuqtasi $N_1$ | | |
| | **YOn chiziq** | | |
| $G_5$ | $G_2$ $G_3$:2 | | |
| | $G_5$↓ $T_2$,$N_2$ | | |
| | **Ko'ylak orqasi** | | |
| $ASH_1$ | A→$SH_1$ | $S_{sh}$:3 | 6,5 |
| $SH_1$ $SH_2$ | $SH_1$↑ $SH_2$ | | 3 |
| $SH_1$1,5 | $SH_1$burchakni o'rtasidan bo'ladigan qilib, chiziq chiqariladi | | 1,5 |
| | A, $SH_2$, 1,5 nuqtalar tutashtiriladi | | |
| | **Yelka qiyaligi** | | |
| $PP_2$ | P← $P_2$ | | 2 |
| | **Yelka chizg'i** | | |
| $SH_2$ $P_3$ | $SH_2$ →$P_2$ orqali | $SH_{plech}$+2 | 18 |
| | **Yeng o'mizi** | | |
| | $P_2$ $G_2$ chiziq 3 qismga bo'linadi, pastki bo'lish nuqtasi $P_4$ bilan belgilanadi. $P_4$ nuqta $G_5$ nuqtaga punktr chiziq yordamida tutashtiriladi, punktr chiziq tyeng ikkiga bo'linadi.Bo'lish nuqtasidan pastga, punktr chiziqqa nisbatan burchak hosil qilib, 2 sm o'lchab, 2 raqami qo'yiladi. $P_3$, $P_4$, 2, $G_5$ nuqtalar tutashtiriladi,yeng o'mizi hosil bo'ladi. | | |
| | YOn va etak chizig'i | | |
| $N_2$, 15 | $N_2$↑15 | | 15 |
| $T_2$ 2 | $T_2$ ←2 | | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | $G_5$, 2, N, 15 nuqtalar tutashtiriladi | | |
| | **Koketka chizish** | | |
| AK | A↓K | | 8 |
| K1 | K→ yeng o'mizi bilan kesishguncha gorizontal chiziq chiziladi, chiziqlar kesishgan nuqtadan↓ 1 | | 1 |
| | **Ko'ylakning oldini chizish** | | |
| SH $SH_3$, SH $SH_4$ | SH←↓ | $S_{sh}$:3 | 6,5 |
| | $SH_3$, $SH_4$ tutashtiriladi | | |
| | **Yelka qiyaligi** | | |
| $P_1$ $P_5$ | $P_1$↓ $P_5$ | | 5 |
| | **Yelka chizig'i** | | |
| $SH_3P_6$ | $SH_3$← $P_5$ nuqta orqali | $SH_{plech}$+2 | 18 |
| | **Yeng o'mizi** | | |
| | $P_5G_3$:3 pastki bo'lish chizig'i $P_7$, $G_5$ va $P_7$ nuqtalar punktr chiziq yordamida tutashtiriladi, bu chiziq tyeng ikkiga bo'linadi bo'lish nuqtasidan ↓ punktr chiziqqa nisbatan to'g'ri burchak hosil qilib, 2 nuqta | | 2 |
| | $P_6$, $P_7$,2, $G_5$ nuqtalar o'zaro tutashtiriladi va yeng o'mizi hosil bo'ladi | | |
| | **YOn va etak chizig'i** | | |
| $T_2$2 | $T_2$ →2 | | 2 |
| | $G_5$ 2 15 $N_1$ nuqtalar tutashtiriladi | | |
| | **Tugma qadaladigan qopqoq haqi** | | |
| | $SH_4$→,$N_1$→ 2 sm uzaytiriladi, 2 raqami qo'yiladi, $SH_4$ $N_1$ 2 tutashtiriladi | | |
| | **CHo'ntak** | | |
| $G_3$ $K_1$ | $G_3$→$K_1$ | | 3 |
| $K_1$ $K_2$ | $K_1$→$K_2$ | | 12 |
| | $K_1$, $K_2$↓$K_3K_4$ | | 13 |
| | $K_3K_4$ nuqtalar tutashtiriladi | | |
| $K_3$ 2, $K_4$2 | $K_3K_4$↑2 2 | | 2 |
| | **Yeng** | | |
| AN | A↓N | $D_r$-4 | 56 |
| | N→ nuqtadan ixtiyoriy chiziq chiziladi | | |
| | **Yeng kyengligi** | | |
| AR | A→R | Sg | 48 |
| | R nuqtadan ↓ to'g'ri chiziq chizib , uning pastki gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $N_1$ | | |
| | Yeng boshining qiyaligi | | |
| $AR_1$ | A↓ $R_1$ | Sg:6+2 | 10 |
| | $R_1$ → ixtiyoriy chiziq chiziladi uning vertikal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $R_2$ | | |
| | **Yeng boshi chizig'i** | | |
| | AR tyeng ikkiga bo'linadi, O bilan belgilanadi.O ↓ to'g'ri chiziq tushiriladi , uning pastki gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $N_2$ bilan belgilanadi.$R_1$O nuqta punktr chiziq yordamida tutashtiriladi punktr chiziq tyeng ikkiga bo'linadi, bo'lish nuqtasidan 1,5 sm ↑$O_1$ | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | qo'yiladi.$OR_2$ nuqta punktr chiziq yordamida tutashtiriladi, punktr chiziq tyeng 4 ga bo'linadi, $O_2$ $O_3$ $O_4$ bilan belgilanadi. | | |
| $O_2 1$ | $O_2 \uparrow 1$ | | 1 |
| $O_4$ 0,5 | $O_4 \downarrow 0,5$ | | 0,5 |
| | $R_1$ $O_1$ O 1 $O_3$ 0,5 $R_2$ nuqtalar tutashtiriladi | | |
| | **YOn chiziqlar** | | |
| $NN_3$ | $N \rightarrow N_3$ | | 6 |
| $N_1$ $N_4$ | $N_1 \leftarrow N_4$ | | 6 |
| | $R_1$ bilan $N_3$, $R_2$ bilan $N_4$ tutashtiriladi | | |
| | **Yeng uchi chizig'i** | | |
| | $N_3$ $N_2$ $N_4$ nuqtalar tutashtiriladi | | |
| | **Yeng uchining tugmalanadigan joydagi kesigi** | | |
| | $N_3$ $N_2$ bo'linadi va $N_5$ bilan belgilanadi | | |
| $N_5$ $N_6$ | $N_5 \leftarrow N_6$ | | 2 |
| | $N_6 \uparrow$ | | 12 |
| | **Manjet** | | |
| AM | $A \rightarrow M$ | | 28 |
| $AM_1$ | $A \downarrow M_1$ | | 16 |
| | $MM_1$ kesishgan nuqta $M_2$ | | |
| | **Bukish chizig'i** | | |
| | $AM_1$ va $MM_2$ chiziqlar tyeng ikkiga bo'linadi, bo'lish nuqtasi punktr chiziq bilan tutashtiriladi | | |
| | **Tik (stoykali) qaytarma yoqani chizish** | | |
| AV | $A \rightarrow V$ | $S_{sh}+1$ | 20,5 |
| | A pastga ixtiyoriy uzunlikda chiziq tushiriladi | | |
| $AV_1$ | $A \downarrow V_1$ | | 4 |
| | $V_1$ o'ngga chiziq chiziladi chiziqlar kesishgan nuqta $V_2$ | | |
| | **YOqa stoykasi** | | |
| V 1,5 | $V \rightarrow 1,5$ | | 1,5 |
| 1,5 $V_3$ | 1,5 $V_3$ | | 3 |
| $AV_4$ | $A \uparrow V_4$ | | 0,5 |
| | $V_4 V$ $V_3$ $V_2$ | | |
| $V_1 O$ | $V_1 \downarrow O$ | | 0,5 |
| | $OV_2$ tutashtiriladi | | |
| $OO_1$ | $O \downarrow O_1$ | | 5 |
| | $O_1 \rightarrow$gorizontal chiziq chiziladi , uning vertikal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $O_2$ | | |
| $O_2 2$ | $O_2 \downarrow 2$ | | 2 |
| | $O_2 2$:2 bo'lish nuqtasi $O_3$ | | |
| $O_4 2$ | $2 \rightarrow O_4$ | | 5 |
| | $\mathbf{O_1}$ $O_4$ $O_3$ tutashtiriladi | | |
| | $V_2$ $O_4$ tutashtiriladi | | |
| | **Yeng uchidagi tugmalanadigan ustki plankani chizish** | | |
| AP | $A \leftarrow P$ | | 15 |
| | P pastga ixtiyoriy uzunlikda chiziq tushiriladi | | |
| | **Plankaning eni** | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| $AP_1$ | **A↓ $P_1$** | | 6 |
| | $P_1$ chapga gorizontal chiziq chiziladi , uning vertikal chiziq bilan kesishgan nuqta $P_2$ | | |
| | **Yeng uchidagi tugma qadaladigan ostki planka chizish** | | |
| | **Plankaning uzunligi** | | |
| AP | A←P | | 13 |
| | **Plankaning eni** | | |
| $AP_1$ | A↓$P_1$ | | 2 |
| | $P_1$ dan chapga gorizontal chiziq chiziladi, gorizontal chiziq bilan vertikal chiziq kesishgan nuqta $P_2$ | | |

## TAJRIBA ISHI №10

**Mavzu: Murakkab shakldagi reglan va yaxlit bichilgan kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish.**

**Ishning maqsadi** :Sanoatda qo'llaniladigan erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarida uchraydigan murakkab shakldagi reglan va yaxlit bichilgan kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish usullari bilan tanishish.

**Ishning mazmuni:**

1. Murakkab shakldagi reglan bichilgan kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish usullarini o'rganish.
2. O'tqazma yenglar xarakteristikasini o'rganish.
3. YAxlit bichilgan kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish usullarini o'rganish.
4. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь, andaza.

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Murakkab shakldagi reglan bichilgan kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish usullari.
2. O'tqazma yenglar xarakteristikasi.
3. YAxlit bichilgan kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish usullari.
4. Reglan yeng turlari.

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1. Talabalar moda jurnalidagi kiyimlarning turli xildagi yenglarining formasi bilan tanishadilar.
2. Ayollar ko'ylagining tashqi ko'rinishini chizadilar.
3. YAxlit yeng konstruksiyalarini ishlab chiqadilar.
4. Barcha hisoblashlar jadval shaklida amalga oshiriladi.

**Ayollar tipik gavdasining o'lchamlari**

| **№** | **Gavda o'lchamining nomi** | **shartli belgisi** | **kiymati, sm** |
|---|---|---|---|
| 1 | Bo'ynning yarim aylanasi | $S_{sh}$ | 18 |
| 2 | Yelka kyengligi | $SH_{plech}$ | 13 |
| 3 | Ko'krakkning yarim aylanasi | Sg | 46 |
| 4 | Ko'krakk ostining yarim aylanasi | $Sg_1$ | 41 |
| 5 | Bel yarim aylanasi | $S_t$ | 36 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6 | Son yarim aylanasi | $S_b$ | 48 |
| 7 | Orqaning belgacha uzunligi | $D_{sp}$ | 37 |
| 8 | Kiyim uzunligi | Di | 100 |
| 9 | Yeng uzunligi | $D_r$ | 16 |
| 10 | Orqa kyenglik | $SH_{sp}$ | 18 |

**Ayollar ko'ylagi asos konstruksiyasini qurish**

| **Konstruktiv bo'lak belgisi** | **Siljitish yo'nalishi** | **Hisob formulasi va hisoblar** | **Konstruktiv bo'lak qiymati** |
|---|---|---|---|
| | **Yeng o'mizining chuqurligi** | | |
| AG | A nuqtadan↓ G | Sg:3+6 | 21,5 |
| | G nuqtadan→ ixtiyoriy chiziq chiziladi | | |
| | **Bel chizig'i** | | |
| AT | A nuqtadan ↓ | $D_{sp}$ | 37 |
| | **Son chizig'i** | | |
| TB | T ↓ | | 18 |
| | **Etak chizig'i** | | |
| AN | A↓ | Di | 100 |
| | **Orqa kyenglik** | | |
| $GG_1$ | $G_1$ → | Sg:4 | 11,5 |
| | $G_2$ ↑ ixtiyoriy chiziladi uning gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqtasi $P_1$ | | |
| | **Ko'ylakning ko'krak chizig'i bo'yicha kyengligi** | | |
| G $G_3$ | G → | Sg +4 | 50 |
| | $G_3$ nuqta orqali vurtikal chiziq o'tkazib uning pastki gorizontal chiziq bilan kesishgan nuqta $B_1$ | | |
| | **Oldingi lif** | | |
| $G_3$ SH | $G_3$↑ | Sg:2+1 | 24 |
| | SH← vertikal chizig'i bilan kesishguncha gorizontal chiziq chizib, kesishgan nuqtasi $P_2$ | | |
| | **YOn chiziq** | | |
| | $G_1$ $G_2$ tyeng 2 ga bo'linadi bu nuqta $G_4$.$G_4$ ↓ etak chizig'i bilan kesishgan nuqta $N_2$, bel chizig'i bilan kesishgan nuqta $T_2$, son chizig'i bilan kesishgan nuqta $B_2$ | | |
| | **YOrdamchi nuqta** | | |
| | $PG_1$ tyeng 4 ga bo'linadi | | |
| | **Ko'ylak orqasini chizish** | | |
| | **YOqa o'mizini chizish** | | |
| A 6,5 | A → | $SH_{sp}$:3+0,5 | 6,5 |
| | 6,5 ↑ 2,5nuqta | | 2,5 |
| | bu nuqtadan ↑ 0,5nuqta | | 0,5 |
| | A 2,5 0,5 –yoqa o'mizi | | |
| | **Yelka chizig'i** | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | 2,5→P nuqta orqali $P_3$ nuqta | $SH_{plech}$+1,5 | 14,5 |
| | Yelka chizig'i tyeng ikkiga bo'linadi bo'lish nuqtasi 0,5 nuqtaga tutashtiriladi | | |
| | **Yelka chizig'idagi vitachkasi** | | |
| 0,5 4 | 0,5→ | | 4 |
| 4 1,5 | 4→ | | 1,5 |
| 4 6 | 4↓ | | 6 |
| | 6↑1,5 nuqta orqali 6sm uzunlikda chiziq chiqarib, 6 nuqta qo'yiladi, bu nuqta $P_3$ nuqtaga tutashtiriladi | | |
| | **Yeng yuqori chizig'i** | | |
| $P_3$ 16 | $P_3$ nuqta $G_3$ nuqtaga tutashtiriladi.$P_3$→16 | | 16 |
| | **Yeng o'mizining qiyaligi** | | |
| $G_4$ $G_5$ | $G_4$↓ $G_5$ | | 2 |
| $T_2$ 1 | $T_2$←1 | | 1 |
| $N_2$ 3 | $N_2$→3 | | 3 |
| | $G_5$ 1 $B_5$ 3 nuqtalar tutashtiriladi , yon chok hosil bo'ladi | | |
| T1 | T→1 | | 1 |
| | A 1 B N nuqtalar tutashtiriladi, o'rta chiziq hosil bo'ladi | | |
| | **Yengning kesigi va yeng uchi** | | |
| | $G_1$ $G_3$ tutashtiriladi,$G_5$→$G_1$ nuqta yo'nalishida 5 sm o'lchab, 5 qo'yiladi.5 nuqta $G_5$ nuqtaga tutashtiriladi va yeng kesigi hosil bo'ladi.$G_5$ nuqta 16 ga tutashtiriladi yeng uchi chizig'i hosil bo'ladi | | |
| | **Etak chizig'i** | | |
| 3 1 | 3↑1 | | 1 |
| | N bilan tutashtriladi | | |
| | **Bel chizig'idagi vitachka** | | |
| | $GG_1$ tyeng 2 ga bo'linadi bo'lish nuqtasidan chapga 1 sm 1. | | |
| | 1↓ son chizig'ining vertikal chiziq bilan kesishgan $B_3$ , vertikal chiziq bilan kesishgan nuqtasidan 1 sm o'ngga 1. | | |
| | $GG_1$ chizig'idagi 1dan 4 sm pastga 4 . | | |
| | $B_3$ yuqoriga 3 sm 3. | | |
| | 4 1 3 1 nuqtalar tutashtiriladi | | |
| | Ko'ylak oldini chizish | | |
| $SHSH_1$ | SH← | $S_{sh}$:3+0,5 | 6,5 |
| $SHSH_2$ | SH↓ | $S_{sh}$:3+1,5 | 7,5 |
| | $SH_1$ $SH_2$ nuqtalar punktr chiziq yordamida tutashtiriladi, tyeng ikkiga bo'linadi, bo'lish nuqtasidan 2sm chapga 2 raqami, $SH_1SH_2$ ga tutashtiriladi | | |
| | **Yelkaning yoqa o'mizidan yelka vitachkagacha bo'lgan kyenglik** | | |
| $SH_1$ $SH_4$ | $SH_1$← | | 4 |
| | **Yelka vitachka** | | |
| | $P_4$↓ $GG_3$ chizig'iga punktir chiziq tushiriladi, uning $GG_3$ chiziq bilan kesishgan nuqtasidan 1 sm o'ngga V.V nuqta $P_4$ nuqtaga tutashtiriladi $P_4$ dan chapga punktr chiziq bo'yicha o'lchab, $V_1$ | Sg- $Sg_1$ | 5 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | $VV_1$ tutashtiriladi | | |
| | $V\uparrow P_4$ yo'nalishida $VV_1$ chiziqqa tyeng keladigan chiziq chiqariladi, vitachkaning har ikkala chizig'i tyeng bo'lishi kerak.$V_2$ $SH_1$ tutashtiriladi | | |
| | **Yelkaning vitachkadan yenggacha bo'lgan kyengligi** | | |
| $P_2$ 5 | $P_2\downarrow$ | $SH_{plech}$-4 | 9 |
| | **Yeng ustki qismi** | | |
| $P_5$16 | Tyeng 2 ga bo'linadi bo'lish nuqtasidan 3sm chapga 3 .3 $P_5$ tutashtiriladi $P_5$ chapga | | 16 |
| | **Yeng o'mizining qiyaligi va yon chok** | | |
| $G_4G_5$ | **$G_4\downarrow$** | | 2 |
| T $_2$1 | T $_2\rightarrow$ | | 1 |
| $N_2$ 4 | $N_2\leftarrow$ | | 4 |
| | $G_5B_2$ 1 4 tutashtiriladi | | |
| | **Yeng kesigi va uchi** | | |
| | $G_2G_5$ tutashtiriladi $G_5\rightarrow B$ | | 5 |
| | $G_2G_5$ chizig'i yeng kesigi | | |
| | 16$G_5$ tutashtiriladi | | |
| | **Bel chizig'i** | | |
| $T_1$1 | $T_1\downarrow$ | | 1 |
| | **Son chizig'i** | | |
| $B_1$ 1 | $B_1\downarrow$ | | 1 |
| | $B_1$ 1 tutashtiriladi | | |
| | **Etak chizig'i** | | |
| 1$N_1$ | $N_1\downarrow$ | | 1 |
| 14 | 4$\uparrow$ | | 1 |
| | 1 1 tutashtiriladi | | |
| | **Oldingi bel chizig'idagi vitachka** | | |
| | $V\downarrow$ son chizig'i bilan kesishgan nuqtasi $B_4$ bu chiziqning bel chizig'i bilan kesishgan nuqtasidan o'ngga va 1,5 sm chapga 1,5.$B\downarrow$4 sm 4. $B_4\uparrow$ 3sm 3.4 1,5 3 1,5 tutashtiriladi | | |
| | **Bel chizig'idagi yon vitachka** | | |
| | Bel chizig'ining yon chiziqdagi 1 nuqtasi bilan oldingi vitachka 1,5 nuchtasi oralig'idagi qismi tyeng 2 ga bo'linadi bo'lish nuqtasi $T_{3.}$ $T_3\uparrow G_2$ gacha $\downarrow$ son chizig'igacha chiziladi $B_{5.}$ $T_3\rightarrow$1 sm $\leftarrow$1. | | |
| | $B_5\uparrow$3 sm $G_2\downarrow$4 3 4.4 1 3 1 tutashtiriladi | | |
| | **Xishtak chizish** | | |
| | **Xishtak uzunligi** | | |
| AL | **$A\rightarrow$** | | 10 |
| | **L** $\downarrow$ ixtiyoriy chiziladi | | |
| | **Xishtak kyengligi** | | |
| $AL_1$ | **$A\downarrow$** | | 5 |
| | $L_1\rightarrow$ vertikal chiziq bilan kesishguncha , kesishgan nuqta $L_2$ | | |
| | $L_1\rightarrow$1, $L_2\leftarrow$1 sm 1 . | | |
| | A 1 L 1 tutashtiriladi | | |

**TAJRIBA ISHI №11**

**Mavzu: Reglan yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish**

**Ishning maqsadi** :Sanoatda qo'llaniladigan erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarida uchraydigan reglan yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish usullari bilan tanishish.

**Ishning mazmuni:**

1. Reglan yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish usullarini o'rganish.
2. O'tqazma yenglar xarakteristikasini o'rganish.
3. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь, andaza

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Reglan yengni izohlang.
2. O'tqazma yenglar turlari.
3. Reglan yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish .
4. Kiyim shakliga qarab uni, parametrlarini aniqlash .

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1. Talabalar moda jurnalidagi kiyimlarning turli xildagi yenglarining formasi bilan tanishadilar.
2. Ayollar ko'ylagining tashqi ko'rinishini chizadilar.
3. Reglan yeng konstruksiyalarini ishlab chiqadilar.
4. Barcha hisoblashlar jadval shaklida amalga oshiriladi.

**Ayollar tipik gavdasining o'lchamlari**

| **№** | **Gavda o'lchamining nomi** | **shartli belgisi** | **kiymati, sm** |
|---|---|---|---|
| 1 | Bo'ynning yarim aylanasi | $S_{sh}$ | 18 |
| 2 | Yelka kyengligi | $SH_{plech}$ | 13 |
| 3 | Ko'krakkning yarim aylanasi | Sg | 48 |
| 4 | Ko'krakk ostining yarim aylanasi | $Sg_1$ | 41 |
| 5 | Bel yarim aylanasi | $S_t$ | 36 |
| 6 | Son yarim aylanasi | $S_b$ | 50 |
| 7 | Orqaning belgacha uzunligi | $D_{sp}$ | 38 |
| 8 | Kiyim uzunligi | Di | 90 |
| 9 | Yeng uzunligi | $D_r$ | 25 |
| 10 | Orqa kyenglik | $SH_{sp}$ | 18 |

**Ayollar ko'ylagi asos konstruksiyasini qurish**

| **Konstruktiv bo'lak belgisi** | **Siljitish yo'nalishi** | **Hisob formulasi va hisoblar** | **Konstruktiv bo'lak qiymati** |
|---|---|---|---|
| | **Yeng uzunligi** | | |
| **AN** | **A**↓ | | **25** |
| | **N**nuqtadan→ ixtiyoriy chiziq chiziladi | | |
| | **Yeng kyengligi** | | |
| $NN_1$ | N→ | Sg:3+4 | 20 |
| | $N_1$↑ ixtiyoriy chiziladi uning kesishgan nuqtasi R | | |
| | **Yeng boshi balandligi** | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| $AR_1$ | **A↓** | Sg:3-1 | 15 |
| | $R_1$ ixtiyoriy gorizontal chiziq chizib, $RN_1$ bilan kesishgan nuqtasi $R_2$ | | |
| | **Yengni orqa tomonga kyengaytirish** | | |
| $R_1R_3$ | **$R_1$←** | Sg:4 | 12 |
| | $R_3$↓ ixtiyoriy chiziladiN← vertikal chiziq bilan kesishguncha uzaytiriladi chiziqlar kesishgan nuqta $N_2$ | | |
| 2 $N_2$ | $N_2$→ | | 2 |
| 22 | 2↑ | | 2 |
| | $2R_3$ tutashtiriladi va $R_3$ dan 2 sm ortiq chiqib turishi kerak chiziqlar uchiga$R_4$ | | |
| | $R_4R_2$tutashtiriladi | | |
| | **Orqadagi yelka chizig'i** | | |
| | AR:2 bo'lish nuqtsidan 1sm→O | | |
| $OO_1$ | O↑ | Sg:4+2 | 14 |
| | $O_1$←ixtiyoriy chiziladi $O_1$←4 sm $O_2$. | | |
| | $OO_2$ tutashtiriladi va bu chiziq 4ga bo'linadi punktr chiziqqa nisbatan to'g'ri burchak hosil qilib↑bo'lish nuqtasidan 0,5 sm chapga pastki bo'lish nuqtasidan 0,5 o'ngga 0,5 qo'yiladi. | | |
| | $O_2$ O 0,5 nuqtasi va punktr chiziqning o'rtasi va 0,5 nuqta orqali tutashtiriladi. | | |
| | **YOqaning orqa o'mizi** | | |
| $O_2$ 2,5 | $O_2$ chapga | | 2,5 |
| | **Bu nuqtadan** ↑ 1sm $O_3$ | | |
| | $O_3$ $O_2$tutashtiriladi | | |
| | **Orqadagi reglan chizig'i** | | |
| $R_4$ 4,5 | $R_4$→ | | 4,5 |
| A3 | **A↓** | | 3 |
| 31 | 3 → | | 1 |
| | 4,5 1 nuqtalar tutashtiriladi | | |
| | 4,5 nuqtadan ↑ qiya chiziq bo'yicha 4,5 sm o'lchab, $O_4$ | | |
| | A $R_4$ $O_4$ $O_3$ tutashtiriladi | | |
| | **Yengni oldingi tomonga kyengaytirish** | | 11,5 |
| $R_2R_5$ | $R_2$ → | Sg:8 | 6 |
| | $R_5$↓kesishgan nuqta $N_3$ | | |
| $N_2$2 | $N_2$← | | 2 |
| | $2R_5$ tutashtiriladi | | |
| | **Oldingi yelka chizig'i** | | |
| $RO_5$ | R↑ | Sg:4-2 | 10 |
| | $OO_5$ tutashtiriladi va 4ga bo'linadi, bo'lish nuqtasidan 0,5 sm ↓ va ↓ bo'lish nuqtasidan0,5 sm yuqoriga 0,5. | | |
| | $O_5$0,5 tutashtiriladi o'rtasi 0,5 O nuqtalar orqali chiziladi | | |
| | **Oldingi yoqa o'mizi** | | |
| $O_5$2,5 | $O_5$→ | | 2,5 |
| 2,5 $O_6$ | 2,5↓ | | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | $O_5$ $O_6$ tutashtiriladi | | |
| | **Oldingi reglan chizig'i** | | |
| $R_2$4,5 | $R_2\uparrow$ | | 4,5 |
| R 6 | R $\downarrow$ | | 6 |
| 6 0,5 | 6$\leftarrow$ | | 0,5 |
| | **Reglan chizig'i** | | |
| | $O_6$R 0,5 4,5 $R_5$ | | |
| | **Yeng uchi** | | |
| | 2 2 tutashtiriladi | | |

## TAJRIBA ISHI №12

**Mavzu: Yaxlit yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish .**

**Ishning maqsadi** :Sanoatda qo'llaniladigan bolalar kiyimlarida uchraydigan yaxlit yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish usullari bilan tanishish.

**Ishning mazmuni:**

1. Yaxlit yeng bichimli kiyim larni o'rganish.
2. O'tqazma yenglar xarakteristikasini o'rgani
3. Yaxlit yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish .
4. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь,lekalo

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Yaxlit yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish .
2. Reglan yenglar xarakteristikasi.
3. Yeng turlari.

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1. Talabalar moda jurnalidagi kiyimlarning turli xildagi yenglarining formasi bilan tanishadilar.
2. Bolalar ko'ylagining tashqi ko'rinishini chizadilar.
3. Yaxlit yeng konstruksiyalarini ishlab chiqadilar.
4. Barcha hisoblashlar jadval shaklida amalga oshiriladi.

| Bolaning yoshi | Raspashonka uzunligi | Raspashonka kyengligi |
|---|---|---|
| 1-2 oylik | 24 | 26 |
| 2-6 oylik | 26 | 28 |
| 6 oylikdan 1 yoshgacha | 28 | 32 |

**Bolalar raspashonkasi asos konstruksiyasini qurish**

| Konstruktiv bo'lak belgisi | Siljitish yo'nalishi | Hisob formulasi va hisoblar | Konstruktiv bo'lak qiymati |
|---|---|---|---|
| | **Yeng uzunligi** | | |
| AG | A$\downarrow$ | | 26 |
| AB | A$\rightarrow$ | 28:2 | 14 |
| BV | B$\downarrow$ | | 26 |
| VG | G$\rightarrow$ | 28:2 | 14 |
| | **Orqa yoqa o'mizi** | | |
| BSH | B$\rightarrow$ | | 4 |
| B1 | B$\downarrow$ | | 1 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | SH 1 nuqtalar tutashtiriladi | | |
| | **YOqaning oldingi o'mizi** | | |
| $BSH_1$ | B↓ | | 5 |
| | $SHSH_1$ tutashtiriladi | | |
| | **Yeng uzunligi** | | |
| AP | A← | | 8-10 |
| | **Yeng kyengligi** | | |
| $PP_1$ | P↓ | | 10-12 |
| | $P_1$→AG bilan kesishgan nuqta $P_2$ | | |
| | **Qo'ltiq choki tushadigan chiziq** | | |
| $P_1P_3$ | $P_1$↑ | | 1 |
| $P_2$2 | $P_2$← | | 2 |
| | $P_2$↓ | | 3 |
| | $P_3$ 2 3 tutashtiriladi | | |
| | **YOn chok va raspashonka etagi** | | |
| GN | G← | | 2 |
| | N 3 tutashtiriladi | | |

## TAJRIBA ISHI №13

**Mavzu: Mayin shakldagi yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish .**

**Ishning maqsadi** :Sanoatda qo'llaniladigan erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarida uchraydigan mayin shakldagi yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish .

**Ishning mazmuni:**

1. Mayin shakldagi yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish usullarini o'rganish.
2. Mayin shakldagi yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish xarakteristikasini o'rganish.
3. Mayin shakldagi yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish .
4. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь,lekalo, andaza

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Yeng turlari.
2. O'tqazma yenglar xarakteristikasi.
3. Mayin shakldagi yeng bichimli kiyim model konstruksiyasini ishlab chiqish usullari.

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1. Talabalar moda jurnalidagi kiyimlarning turli xildagi yenglarining formasi bilan tanishadilar.
2. Erkaklar pidjagining tashqi ko'rinishini chizadilar.
3. Yeng konstruksiyalarini ishlab chiqadilar.

Ikki chokli yengni chizmasini chizish uchun,yengning uzunligini o'lchash kerak.Misolimizda yeng uzunligi 63 sm qilib olingan.Yengning kyengligi 24 sm bo'ladi,ya'ni ko'krak aylanasining uchdan bir qismi plyus 8 sm , ya'ni 48:3=16+8=24sm.

To'g'ri burchak chizib, burchakning uchiga O nuqta bilan belgilanadi.

Yeng uzunligi .O nuqtadan pastga 62 sm uzunlikda chizib,N nuqta qo'yiladi.

Yeng kyengligi.O nuqtadan o'ngga 24 sm uzunlikda chiziq chizib, $O_1$ nuqta qo'yiladi.

Yeng boshining baladligi.O nuqtadan pastga 16 sm ya'ni ko'krak aylanasining to'rtdan bir qismi plyus 4 sm,ya'ni 48:4=12+4=16 sm uzunlikda chiziq tushirib,P nuqta qo'yiladi.$OO_1$ chiziqning qoq o'rtasiga $O_2$ nuqta qo'yiladi bu, yeng boshining eng baland nuqtasi bo'ladi.

O nuqtadan o'ngga 5 sm o'lchab,$O_3$ nuqta qo'yiladi.Bu yeng boshining yordamchi nuqtasi hisoblanadi.P nuqtadan yuqoriga 4 sm o'lchab, $P_1$ nuqta qo'yiladi.$P_1$ nuqta $O_3$ ga tutashtiriladi.

Tirsak chizig'i. $P_1N$ chiziqning qoq o'rtasiga L qo'yiladi va undan o'ng tomonga gorizontal chiziq tortiladi: bu, tirsak chizig'i bo'ladi.L nuqtadan chapga 3 sm uzunligida chiziq chizib,uchiga $L_1$ nuqta qo'yiladi.

Yeng oldingi perekatining kyengligi .P nuqtadan chapga 4sm uzunlikda barcha razmerlar uchun bir xil chiziq tortib, uchiga $P_2$ nuqta qo'yiladi.

N nuqtadan chapga 4 sm uzunlikda chiziq tortib, chiziqning uchiga $N_1$ nuqta bilan belgilanadi.$N_1$ nuqta $L_1$ nuqtaga, $L_1$ nuqta esa $P_2$ nuqtaga to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi; natijada oldingi perekat konturi ya'ni chizig'i hosil bo'ladi.

Yeng ustki yarmini ya'ni yeng boshini chizish uchun yordamchi nuqtalarni belgilash. $O_1$ nuqtadan pastga 5sm ,hamma razmerlar uchun bir xil o'lchab, shu erga $P_3$ nuqta qo'yiladi.$P_3$, $O_2$, $P_1$ va $P_2$ nuqtalar murakkab egri chiziq bilan bir-biriga tutashtriladi,shunda yeng ustki yarmining boshi hosil bo'ladi.

Yeng ustki yarmining yeng uchi kyengligi. N nuqtadan o'ngga 16sm uzunligida gorizontal chiziq tortilib, chiziq uchiga $N_2$ nuqta qo'yiladi. $N_2$ nuqtadan past ga 3sm lik chiziq tushirib, uchi $N_3$ nuqta bilan belgilanadi; $N_3$ nuqta N nuqtaga tutashtiriladi.

Yeng ustki yarmining tirsak konturi. $O_1$ nuqtadan pastga, tirsak chizig'igacha tik chiziq tortiladi, uning tirsak chizig'i bilan kesishgan joyi $L_2$ nuqta bilan belgilanadi.$L_2$ nuqtadan chapga chiziq bo'yicha 1.5 sm o'lchab,shu erga $L_2$ nuqta qo'yiladi.$L_3$ nuqta $P_3$ nuqtaga tutashtiriladi.$N_3$ nuqta $L_3$ nuqtaga tutashtirilsa , tirsak konturi kelib chiqadi.

Yeng ostki yarmining eng baland nuqtasi.$P_3$ nuqtadan chapga 4sm uzunlikda hamma razmerlar uchun bir xil chiziq tortilib,uchiga V nuqta qo'yiladi.Bu nuqta yeng ostki yarmining eng baland joyi bo'ladi.

Yeng ostki yarmining oldingi chok tutashadigan chizig'i.P nuqtadan o'ngga 2 sm barcha razmerlar uchun bir xil uzunlikda chiziq tortilib, uchi $V_1$ bilan belgilanadi.L nuqtadan o'ngga 3 sm o'lchab, $L_4$ nuqta qo'yiladi.N nuqtadan o'ngga chiziq bo'yicha 2 sm o'lchab, $N_4$ nuqta qo'yiladi.$V_1$, $L_4$,$N_4$ nuqtalar bir-biriga to'g'ri chiziq bilan tutashtirilgach yeng ostki yarmining chok chizig'i hosil bo'ladi.

Yeng ostki yarmining o'mizini chizish uchun yordamchi nuqtalarni belgilash.$V_1$ nuqtadan o'ngga 7 sm uzunligida to'g'ri chiziq tortib, uchiga $V_2$ nuqta qo'yiladi.$V_2$ nuqta V nuqtaga to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi.So'ngra $V_1$ nuqtadan V nuqtagacha egri chiziq tortib, yeng o'mizi hosil qilinadi.

V nuqta $L_3$ nuqtaga sal egri chiziq bilan tutashtirilsa, yeng ostki yarmining tirsak konturi hosil bo'ladi.



## TAJRIBA ISHI №14

**Mavzu: Kiyim detallariga texnologik ishlov berish chizmalarini tuzish.**

**Ishning maqsadi :**Kiyim detallariga texnologik ishlov berish chizmalarini tuzish usullari bilan tanishish.

**Ishning mazmuni:**

1. Kiyim detallariga texnologik ishlov berishni o'rganish.
2. Kiyim detallariga texnologik ishlov berish chizmalarini tuzish usullarini o'rganish.
3. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**


1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.


**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь,andaza

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Kiyim detallari qaysilar.
2. Kiyim detallariga texnologik ishlov berish nimalardan iborat.
3. Kiyim detallariga texnologik ishlov berish chizmalarini tuzish usullari nimalardan iborat

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1. Talabalar kiyim detallariga texnologik ishlov berish bilan tanishadilar.
2. Kiyim konstruksiyasining texnologligi darajasini oshirish prinsiplarini o'rganadilar.
3. Buyumni tarkibiy qismlarini ishlab chiqadilar.

Kiyim konstruksiyasining texnologikligi deb detallar, tugunlar va kiyimning shunday konstruktiv echimiga aytiladi-ki, u ishlab chiqarishni konstruktorlik va texnologik jihatdan tayyorlashga juda kam mablag' xarajatlagan holda yuqori mehnat unumdorligi va minimal mahsulot tannarxini ta'minlovchi ishlab chiqarishning taraqqiy usullarini qo'llashga imkon yaratsin.

Shunday qilib, texnologik konstruksiya - bu o'zining funksional talablariga to'liq javob beruvchi va yangi zamonaviy texnik jihozlarda taraqqiy texnologik usullarni qo'llash bilan hosil qilinadigan konstruksiyadir.

Kiyim konstruksiyasining texnologikligini oshirish bo'yicha ishlarni barcha loyihalash bosqichlarida amalga oshirish tavsiya etiladi.

Eng katta ahamiyat birinchi bosqichdagi konstruktiv echimlarga (texnik tavsiya va eskizli loyihalash) beriladi.

Buyumni tarkibiy qismlarga bo'lish. KXYAT (ESKD) talablariga asoslanib va kiyimni konstruktiv to'zilishi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, kiyim detallari, konstruksiyasi va yig'im birliklariga quyidagi talablarni qo'yish mumkin:

- agregatlash prinsipiga ko'ra yig'ish birliklari tarkibiy qismlarning rasional soni bo'linishi lozim;
- yig'ish birligining konstruksiyasi unifikasiyalashgan tarkibiy qismlardan tuzishni ta'minlashi kerak;
- qo'llanilayotgan birikmalar, ularning konstruksiyasi va joylanishi yig'ish (montaj) ishlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirishga imkon yaratishi shart;
- detal konstruksiyasi unifikasiyalashgan konstruktiv elementlardan tashkil topgan yoki umuman unifikasiyalangan bo'lishi kerak;
- tayyorlash ishlari bir necha detallarni bir vaqtda (parallel) ishlov berishga imkon yaratishlari kerak;
- biriktiriladigan detallar silliq bo'lib, yig'ish jarayonlarini avtomatlashtirishga kerakli sharoitlar yaratishi lozim;
- detallar va tugunlar konstruksiyasidagi hajmi fazoviy shaklni hosil qilish bir jarayonli formalashning zamonaviy usullari bilan, isitib-namlab ishlov berish jarayonlarisiz amalga oshirilishi kerak;
- detallar va tugunlar konstruksiyalari tipik texnologik jarayonlarni qo'llashni ta'minlashi lozim.

Buyumda unifikasiyalangan tarkibiy qismlarni qo'llash ularni o'zaro almashtirishga imkon yaratadi.

Kiyim konstruksiyasining texnologik darajasini baholash.

Texnlogiyaning hisoblanadigan birlik va kompleks ko'rsatgichlari soni minimal bo'lishi kerak, lekin barcha loyihalash bosqichlarida konstruksiyani texnologiyaga ishlashga imkon yaratishi shart. Eng asosiy ko'rsatkich sifatida shu buyumni tayyorlash uchun sarf etilgan tirik ashyoviy umumiy harajatlarni aks etuvchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. YUqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda quyidagi kompleks ko'rsatkichlar aniqlandi: ishlab-chiqarish texnologikligi - $K_{122}$ va ekspluatasion texnologiklik -$K_{222}$.

Ishlab chiqarishning kompleks ko'rsatkichi $K_{122}$ uchta guruhli ko'rsatkichlar: konstruksiyaning taraqqiyligi - $K_{1122}$, buyumni tayyorlash mehnat sig'imligi - $K_{2122}$ va material sig'imligi - $K_{Z122}$ bilan aniqlanadi.

Konstruksiyaning taraqqiyligi ko'rsatkichi $K_{1122}$ quyidagi birlamchi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi: detallar va birikmalarning minimal soni $K_{11122}$; yangi rasional materiallarni qo'llash koeffisienti - $K_{21122}$; paralel-ketma-ket ishlov berish usullarini qo'llash koeffisienti - $K_{Z1122}$; mexanizasiyalash va avtomatlashtirish koeffisienti - $K_{41122}$.

## KIYIM KONSTRUKSIYASINING TEXNOLOGIKLIGI DARAJASINI OSHIRISH PRINSIPLARI.

Kiyim konstruksiyasining texnologikligi darajasini oshirish uchun quyidagilarni ko'zda to'tish lozim:

- jarayon ichidagi isitib-namlab ishlov berish jarayonini qisqartirish yoki umuman bartaraf etish;
- keraksiz choklarni yo'qotuvchi yaxlit bichilgan detallarni qo'llash;
- unifikasiyalangan detallar va tugunlarni qo'llash;
- qo'l bilan bajariladigan ishlov berish usullarini mashinali elimli choklar bilan almashtirish;
- unifikasiyalangan texnologiyadan foydalanish;
- aniq bichilgan bichimlarni qo'llash yo'li bilan aniqlash jarayonini bartaraf etish.

## LOYIHALANAYOTGAN KIYIM MODELLARINING TEJAMKORLIGI.

Ishlab chiqarish tejamkorligi. Konstruksiya rasionalligini aniqlovchi asosiy faktorlardan biri - bu uning tejamkorligidir. Kiyim konstruksiyasi tejamkorligi uning tannarxi bilan aniqlanadi.

Buyumlarning material sig'imini kamaytirish konstruktorlik echimlarning darajasi va ishlab chiqarishning umumtexnikaviy darajasini oshirish bilan bog'liqdir.

Andazalarni gazlama ustiga qo'yish hamda kiyimni bichish texnik talablariga muvofiq bajarilishi lozim. Asosiy ikkilamchi va yordamchi ish andazalari komplekti texnik kontrol bo'limida tekshirilgan va qachon tekshirilinganligi (oy, kun va yili) yozilgan, imzo chekilgan hamda OTK ning shtampi bosilgan bo'lishi kerak. Korxonadagi ish andazalari etalon-andazalar hamda o'lchamlar tabeli bo'yicha tekshiriladi.

Tayyor kiyimning sifati bichish vaqtida andazalarning gazlama ustiga texnik talablarga muvofiq, to'g'ri qo'yilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

T u k l i gazlamalar, shuningdek, har xil tusdagi gazlamalardan kiyim bichish vaqtida asosiy gazlamadan tikiladigan detallarning barcha andazalari (adip va ostki yoqalar bundan mustasno) bir tomonga qaratilishi kerak. Kiyim duxoba, baxmal, nimbaxmal, chiyduxobadan bichilayotganda andazani gazlama tuki pastdan yuqoriga qarab turadigan qilib joylash kerak. SHunda tayyor kiyimning materiali yaltirab turmaydi. Gullari har tomonga qaratilgan gazlamalarda andazalarni gazlama gullari pastdan yuqoriga yoki, aksincha, yuqoridan pastga qarab turadigan qilib joylash tavsiya etiladi.

Bayka, flaneль, movut (drap, sukno) kabi tukli materiallar, paxta ipi, vegonь ip, melanj ipdan to'qilgan materiallardan, zamsha va chiyduxobadan kiyim bichishda andazalarni tuklar pastdan yuqoriga qarab turadigan qilib joylash kerak, shunda kiyimning materiali ortiqcha paxmoqlanmaydi. Umuman, andazaning joylanishi material tukining uzun-qisqaligi mayin-dag'alligiga bog'liq. Xullas, uzun tukli materialda tuklar yuqoridan pastga, kiska materiallarda pastdan yuqoriga yo'nalgan bo'ladi.

Tuklari ko'zga arang chalinadigan materialdan tikiladigan kiyimni bichganda hamma detallarda material tuklarining bir yo'nalishda joylashgan bo'lishiga e'tibor berish kerak. Agar gazlama ustiga ikki kiyimning andazalarini bir yo'la joylashtirishga to'g'ri kelsa, u holda bir kiyimning jami detallarida gazlama tuklari bir tomonga, ikkinchi komplektda esa boshqa tomonga qaratilishi lozim.

Sidirg'arang, yo'l-yo'l yoki katak (tuksiz) gazlamadan kiyim bichishda (agar kataklar, gullar simmetrik joylashgan bo'lsa) detallarning andazalarini qarama-qarshi yo'nalishda joylashga yo'l qo'yiladi. Gullari nosimmetrik, shuningdek, m a ' l u m yo'nalishda joylashgan gazlamada bir kiyimning hamma detallari andazasi bir tomonga qaratib qo'yiladi.

X o l - x o l (xollar yirik bo'lsa) yoki yo'l - yo'l gazlamadan kiyim bichishda va tikishda kiyim orqasi va oldining o'rta chizig'i gulning qoq o'rtasiga to'g'ri keltirilishi lozim.

Yo'l-yo'l va katak gazlama ustiga andazalarni joylayotgan ayrim detallarning chetlaridagi, chunonchi: kiyimning oldida - bortlar chetidagi, kiyim orqasida - o'rta chiziqdagi, podbortlarda - yoqa qaytarmalarining tashqi zixlaridagi, cho'ntaklar, cho'ntak kopqoqlari, ko'krak cho'ntagi (listochki), yoqa, xlyastik, old va orqa koketkalardagi bir-biriga mos holda to'g'ri keltirilishiga alohida e'tibor berish kerak.

Kiyimning mazkur detallarini bichayotganda gazlamaning gullarini bir-biriga to'g'ri keltirish uchun undagi takrorlanadigan gulning kattaligida yoki to'la kattaligida chok haqi tashlab ketiladi. Kiyimning orqasi (chokli bo'lgan hollarda) va podbortlarni bichayotganda chok haqi tashlab ketilmaydi, balki bu detallar gazlamaning chetiga yaqinrok joylashtiriladi. Gazlamaning takrorlanadigan gullari yirik bo'lganda ham shunday talablar qo'yiladi.

Belbog'li va yelkasi yostiqchali kiyimlarda chok haqi gazlamaning ko'ndalang joylashgan yirik yo'llari yon choklarda bir-biriga to'g'ri kelishini, yoqaning har ikkala uchida hamda yoqa qaytarmalarida esa simmetrik joylashuvini ta'minlamogi lozim.

Kiyim detallarini bichganda hamma detallarning chetlarida andazadan ozgina bo'lsa-da chetga chiqilishini nazarda to'tish kerak. Lekin bu chetga chiqishlar quyidagi ko'rsatilgan darajadan ziyod bo'lmasligi lozim:asosiy materialdan bichilgan detallarning chetlari (yelka chizig'i, yeng o'mizi, yeng boshi va hokazo) da 0,1-0,15 sm;asosiy material va astarbop gazlamadan bichilgan detallar chetida (bortlar zixida, old yon chiziqlarda, yengning tirsak to'g'risidagi va oldingi zixlarida, yoqalar va qoplama cho'ntaklarning chetlarida va hokazo) 0,15-2 sm; turli oraliq detallar, kiyimning old va orqa etaklari (avrasi va astari) da va hokazolarda 0,25-0,3 sm; kertiklarning o'lchamlarida va bir-biriga nisbatan joylashuvida 0,2 sm.

Andazadan eng ko'pi bilan 0,2 sm chetga chiqishga yo'l qo'yiladigan detallarni bichish vaqtida ularning andazalari oralarida kamida 0,1-0,15 sm qoldirib joylash lozim.

Tikuvchilik sanoatida va maishiy xizmat sistemasida andazalarni joylashtirishning tipik sxemalari qo'llaniladi; bu sxemalar ilmiy-tekshirish institutlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, har xil modeldagi kiyim uchun qo'llanilishi mumkin; bu sxemalarda razmeri va bo'yi har xil bo'lgan kiyimlarning yirik detallari andazalarini eni bir tipdagi gazlamalar ustiga joylash tartibi ham ko'zda tutilgan.

Andazalarni gazlama ustiga joylashning bir necha varianti mavjud. Lekin asosiy prinsip quyidagidan iborat. Yirik detallarning andazalarini joylashda ularning to'g'ri chiziqli (yoki sho'nga yakin) chetlari joylash ramkasining chetiga taqab qo'yiladi, egri chiziqli chetlari esa maydonchaning o'rtasiga to'g'ri keltiriladi.

Yirik andazalar orasiga maydaroqlari joylanadi, bunda yondosh andazalarning chetlari bir-biriga tegib turishi lozim.

Yirik va o'rtacha kattalikdagi andazalarning chetlarini juftlashtirish kerakki, ularning hosil bo'lgan ochiq joylarga mayda andazalar sig'adigan bo'lsin.

Tavsiya etilayotgan tipik sxemalarning ko'pchiligi andazalarni simmetrik joylashtirish, ya'ni har ikkala qismda (agar uni shartli ravishda diagonal bo'yicha ikki qismga bo'ladigan bo'lsak) bir xilda joylashtirish prinsipi bo'yicha to'zilgan.

Razmerlari va bo'yi bir xil bo'lgan va oralik gruppaga kiritiladigan kiyimlarning andazalarini joylashda eng qulay va yaxshi tipik sxemadan foydalanish mumkin. Bir turdagi, lekin har xil modeldagi kiyimlarning andazalari shakli bir-biriga juda o'xshaydi, ularni gazlama ustiga joylashtirishda yirik andazalarni joylashtirish sxemasidan foydalanish mumkin.

Materialning qiymati tayyor kiyim tannarxining 80-90 % ni tashkil etadi; sho'nga ko'ra kiyim bichishda materialni tejab-tergashning katta ahamiyati bor. Material ustiga andazalarni joylashdagi tejamkorlik qirqim chiqishiga qarab belgilanadi: gazlamaning eni va ko'p-oz chiqishi turli omillarga bog'liq; gazlamaning eni va turi, joylangan detallarning shakli, o'lchami va bo'yi hamda gazlama ustiga andazalarni joylash tartibi shunday omillar jumlasiga kiradi. Qirqimlarning ko'p-oz chiqishiga andazalarning joylanish tartibi ko'prok ta'sir etadi. Palьto detallarining andazalarini joylashning asosiy sxemalari kiyim oldi va orqasining vaziyatiga, pidjak oldining hamda shim oldi va orqasining vaziyatiga qarab aniqlangan.

Ekspluatasion tejamkorlik. Kiyim konstruksiyasining tejamkorligi ekspluatasiyalash jarayonida uni tashqi ko'rinishini saqlab turish uchun sarflangan iste'molchilar xarajatlari bilan aniqlanadi, masalan, kimyoviy tozalash, yuvish, ta'mirlash, dazmollash va hokazo.

Kiyimning ekspluatasion tejamkorligi asosan materiallar sifatiga, shuningdek qo'llaniladigan kimyoviy singdirmalar va maxsus ishlov berishlarga bog'liqdir. G'ijimlanmaydigan singdirma, shaklni saqlaydigan singdirma, suv o'tqazmaydigan va suvni itaruvchi singdirmalar nafaqat kiyimni issiqlik saqlash xossalarini yaxshilaydi, balki kiyimning tashqi ko'rinishlarini saqlash uchun xarajatlarni kamaytiradi va uning chidamliligini oshiradi.

## TAJRIBA ISHI №15

### Mavzu: Kiyim detallari andazalarini ishlab chiqish (asosiy andozalar,astar detallari va kotirma detallari andozalari).

**Ishning maqsadi** : Kiyim detallari andazalarini ishlab chiqish (asosiy andozalar,astar detallari va kotirma detallari andozalari) usullari bilan tanishish.

**Ishning mazmuni:**

1. Kiyim detallari andazalarini o'rganish.
2. Kiyim detallari andazalarini ishlab chiqishni o'rganish.
3. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.

3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Andazalar konstruksiyasini tuzish nimalardan iborat.
2. Etalon – andazalarlar xarakteristikasi.
3. Ish andazalari.
4. YOrdamchi andazalar.

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1.Talabalar kiyim detallari andazalarini ishlab chiqish (asosiy andozalar,astar detallari va kotirma detallari andozalari) bilan tanishadilar.

2. Andazalar konstruksiyasini tuzishni o'rganadilar.
3. Asosiy andazalar kiyim konstruksiyasining chizmasi bo'yicha tayyorlaydilar.

**ANDAZALAR KONSTRUKSIYASINI TUZISH**

Kiyim detallari andaza bo'yicha bichiladi. Andaza tayyorlashdan oldin kiyim detallarining chizmasida vitochkalar, yon chiziqlar, yeng, shim va boshqa detallar chiziqlarining barcha o'tmas burchaklari ularning uchiga mumkin qadar yaqinroqdan dumaloqlanadi. So'ngra kiyim orqasi va oldi detallarining, yengining usti va osti yarmining, shimning old yarmi bilan orqa yarmi juftlashtirilib bir-biriga ulanadigan zixlarining o'zaro mos kelishi tekshiriladi; bunda konstruksiya chiziqlaridan arzimagan darajadagina chetga chiqishga yo'l qo'yiladi. SHu tarzda aniqlangan chizmalarda choklarga hamda kiyim etagini, yeng uchi va shim pochasini bukish uchun qabul qilingan texnologik va texnik shartlarga muvofiq chok haqi belgilanadi.

Andazalar tayyorlash usuliga qarab, aosiy andaza, ikkilamchi (hosila) andaza va yordamchi andaza degan turlarga ajratiladi, bajaradigan vazifasiga qarab esa, etalon-andaza (originallar), ish andazasi va yordamchi andaza kabi xillarga ajratiladi.

Etalon – andazalar andazalarni tekshirish uchun kontrol vosita sifatida xizmat qiladi. Ular eksperimental sexlarda saqlanadi va original-chizmalar yoki o'lchovlar tabeli bo'yicha kamida kvartalda bir marta tekshirib ko'riladi.

Ish andazalaridan bevosita texnologik jararyonlarda (kiyim bichish, bichiqlarni tekshirish va hokazolar vaqtida) foydalaniladi. Bu andazalar oyiga kamida bir marta etalon andazalar bo'yicha tekshiriladi. Kesilgan joylardagi chetga chiqishlar normativ-texnik hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

Yordamchi andazalar kiyimning qayirib bukish chiziqlari, kesib tashlanadigan joylari, cho'ntaklar, izmalar, tugmalar va hokazolar o'rnini qo'shimcha ravishda belgilash uchun xizmat qiladi.

Andaza kalinligi 0.9-1.62 mm keladigan karton qog'ozdan tayyorlanadi. Bu maqsadga ishlatiladigan kartonning namlik darajasi havoning normal nisbiy namligi 60-65% bo'lganda 8% dan oshmasligi lozim. Ish andazalarining xizmat muddatini cho'zish uchun ularning konturi bo'yicha tunuka tasma tutiladi yoki chetlariga maxsus eritma (elim, suyuk, shisha) surtiladi, yo bo'lmasa karton tezda yirtilmaydi va andaza gazlama bilan yaxshi tishlanadi, bu esa bichish aniqligini oshiradi.

Odatda ish andazalari 3-5 komplekt qilib tayyorlanadi.

Asosiy andazalar kiyim konstruksiyasining chizmasi bo'yicha tayyorlanadi; bu andazalarda chok haqi, kiyim etaklarini albatta hisobga olingan bo'ladi. Kiyimning orqasi, oldi, beriladigan chok haqi "Tikilgan kiyimlar.Qaviqlar, baxyalar va choklar" davlat standartiga muvofiq belgilanadi. Detallarning (masalan, ustki yoqa, va shu kabilarning) chetini qayirib bukish haqi gazlamaning kalinligiga hamda uzel kosntruksiyasiga bog'liq bo'lib, normativ-texnik hujjatlarda ko'zda tutiladi.

Aholining shaxsiy buyurtmasiga muvofiq kiyim tikishda baza konstruksiyalar andazasi hamda chala fabrikat bichish uchun xizmat qiladigan andazalardan foydalaniladi. Baza konstruksiyalar andazasini tayyorlagan vaqtda chok haqi berilmaydi. Kiyimni bichganda tegishli joylarda chok haqi tashlab ketiladi, bu esa kiyim balansini yaxshilash maqsadida o'nga

birmuncha o’zgartirish kiritishga va kompozision echimlarga imkon tug’diradi .Kiyim detallarining chetlarini to’g’ri va aniq ulash mumkin bo’lishi uchun, andazalarni tayyorlagan vaqtda kertiklar qilinadi.

O’miz chizig’i va yeng boshidagi kertiklarni qanday hosil qilish kerakligi yenglarning chizmasini chizish to’g’risida so’z borganda tushuntirib keltirilgan edi.

SHimning old va orqa yarmining andazalarida yon chiziqlar bilan og’ chiziqlarida kertiklar tizza chizig’i to’g’risida joylashadi; shuningdek, gulьfik va otkos ulab tikila boshlaydigan nuqtaga yoki 2 sm balandroqqa ham kertik qilinadi.



**Erkaklar kostyumi detallarining asosiy andazasini chizish :**

a)-pidjakning orqasi, yon bo’lak va pidjakning oldi; b)-yeng; v)- shimning old va orqa qismlari ;

Reglan yengli kiyimda kertiklarning o’rni orqaning o’rta chizig’ida xuddi bel to’g’risida, kiyim orqasi va oldining yon chiziqlarida esa ayni bel va son chiziqlari to’g’risida bo’ladi. Orqa yeng o’mizidagi birinchi kertik esa tirsakning perekat chizig’i uchida bo’ladi. Yenglarining o’mizga ulab tikiladigan chiziqlarining to’rt joyi kertiladi: yengning oldingi qismida - old yoqa o’mizi burchagidan 6-7 sm masofada, yengning orqa qismida - orqa yoqa o’mizi chizig’idan 7-8 sm masofada; yengning old qismida esa-old perekat chizig’ining uchi bilan bir sathga joylashadi. Yenglarning old va orqa qismlarida ustki zixlarining uch joyi kertiladi: biri-yelkaning oxirgi nuqtasi bilan bir sathga,ikkinchisi-yeng o’mizining chuqurlik chizig’i sathida, uchinchisi-yeng uchi chizig’idan 7-8 sm narida joylashadi. Yengning old va orqa qismlarining ostki zaxlaridagi birinchi kertik shu chiziq uchidan 6-7 sm masofada, ikkinchi kertik esa yeng uchidagi chiziqdan 7-8 sm masofada bo’ladi.



**Pidjak (a) va shim (b) detallarning hosila andazalarini tayyorlash.**

Asosiy andazalar ishlab chiqilgandan keyin detallarining juftlashtiriladigan konturlari tekshirib ko’riladi.

Ikkilamchi (hosila) andazalar asosiy andazalar asosiy andazalar bo’yincha tayyorlanadi. Ikkilamchi andazalarga quyidagilar kiradi: asosiy materialdan tikiladigan detallarining (podbort, ustki yoqa, gulьfik va otkos) andazalari; astarbop materialdan tikiladigan detallarning (kiyimning

oldi va orqasi, yengning ustki va ostki qismlari, jiletka astari, shim old yarmining astari, gulьfik, otkos va hokazo) andazalari; oraliq materialdan tayyorlanadigan detallar (kiyimning ko'krak qismiga, yelkaga va yoqa oralig'iga qo'yiladigan dag'al matodan iborat bortovka)ning andazalari; astarlik materialdan tayyorlanadigan detallar (kiyimning ko'krak qismiga, yelkaga va yoqa oralig'igiga qo'yiladigan dag'al matodan iborat bortovka)ning andazalari; astarlik materialdan tayyorlanadigan detallar (pidjak va jiletkaning old qismiga, yirmochka, orqa, etakka, yeng o'miziga, yon etakka, yenglar uchiga, ustki va ostki yoqalarga podbortga qo'yiladigan takroriy oraliq material) andazalari. Podbort, kiyim oldi va orqasining astari, yeng astari andazalarini tayyorlash tartibi rasmda ko'rsatilgan.

Yordamchi andazalar kiyim detallarining asosiy va ikkilamchi andazalaridan foydalanib tayyorlanadi.

Asosiy va ikkilamchi etalon-andazalarga hamda ish andazalariga texnik talablarga muvofiq quyidagi belgilar qo'yiladi: gazlamaning bo'ylama yo'nalishini ifodalovchi chiziq - tanda ipi yo'nalishi (T.I.); bo'ylama yo'nalishdan chetga chiqish chiziqlari; uloq tushadigan joylarda ularning minimal va maksimal kyengligini ko'rsatuvchi chiziqlar (kiyimlarining tarmoq standartiga muvofiq); bir-biriga ulanadigan detallarning juftlashtiriladigan joylaridagi kontrol kertiklar.Yordamchi andazalarda cho'ntaklar, vitachkalar, burmalar, izmalar, tugmalar va hokazolarni ko'rsatiladi.

Asosiy, ikkilamchi va yordamchi etalon-andazalarning hamda ish andazalarining barcha komplektlarida kesiladigan joylardagi chiziqlar bo'yicha (andazaning chetidan 1 mm qochirib) 8-10 sm oralatib tamg'a bosiladi yoki chiziq chiziladi; tamg'a va chiziqlar andazaning eskirish darajasini tekshirib turish uchun kerak.

Ish andazalarida kesish aniqligidan yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlarni ko'rsatib qo'yish maqsadga muvofiq. Kiyimning nihoyat darajada aniq bichilishi joylarida (yoqa o'mizi, yelka zixlari, yeng o'mizi,yeng boshi) yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlar 0.25 sm, astar va oraliq materialdan tayyorlanadigan detallarda 0.4 sm ni tashkil etadi.

**Gazlama tanda ipining yo'nalishi va kiyim detallarida undan chiqilishi.**

| Kiyim detallari | Kiyimning asosiy detallarida tanda ipning yo'nalishi | Tanda ipi yo'nalishidan chetga chiqish | |
|---|---|---|---|
| | | Sidirg'a rang gazlama | Yo'l-yo'l va katakli gazlama |
| Kiyimning orqasi | | | |
| YAxlit | Orqaning o'rta chizig'i | 2 | 0,5 |
| O'rta chokli | Orqaning o'rta chizig'i | 2 | 0,5 |
| Kiyimning oldi | | | |
| YAxlit | Bar chizig'i | 1 | 0 |
| Tugmalanadigan | Bar chizig'ining eng yuqori izmadan | | |
| O'tqazma yeng | etakkacha bo'lgan qismi | 1 | 0 |
| Bir chokli | Detalning o'rta chizig'i | 4-5 | 1 |
| Ikki chokli | Yeng ustki qismi old zixining yuqorigi | 6-7 | 2-3 |
| Reglan bichimli yeng | va pastki burchaklarini ulash chizig'i | | |
| Bir chokli | Detalning o'rta chizig'i | | |
| Ikki chokli | Detalning o'rta chizig'i | 4 | 1 |
| | | 2 | 0,5 |

E s l a t m a. Detalning asosiy chiziqlarning yo'nalishi modelga va gazlamaning turiga qarab boshqacharoq bo'lishi mumkin. Harakatchan to'rsimon strukturali gazlamadan tikiladi. Kiyish jararyonida gazlama strukturasi o'zgarib, kiyimning shaklsi bo'zilishi mumkin. Buni oldini olish uchun kiyim detallarini shunday bichish kerakki, asosiy cho'zuvchi kuchlar gazlamaning tanda

iplari bo'ylab yo'nalsin. Buning uchun yuqorida aytib o'tilgan belgilardan tashqari, kiyimning har bir detalida tanda ipining yo'nalishi va yo'nalishdan yo'l qo'yiladigan chetga chiqishlar ko'rsatiladi. Tanda ipi yo'nalishidan chekli chetga chiqishlar material tolasining tarkibiga, strukturasiga, materialning to'qilish zichligiga kiyimning konstruksiyasi, vazifasi va hokazolarga bog'liq .

## TAJRIBA ISHI №16

### Mavzu: Kiyim detallari andazalarini texnik ko'paytirish

**Ishning maqsadi :** Kiyim detallari andazalarini texnik ko'paytirish usullari bilan tanishish.

**Ishning mazmuni:**

1. Andaza turlarini o'rganish.
2. Andazalarni texnik ko'paytirsh usullarini o'rganish.
3. Andazalarni texnik ko'paytirsh usullaridan foydalanib, detallarni ko'paytirish.
4. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog'ozi, lineyka, qalam, sirkulь

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Andaza nima.
2. Andaza turlari.
3. Etalon andaza turlari.
4. Andazalarni texnik ko'paytirish usullari.

**Uslubiy ko'rsatmalar**

1. Talabalar kiyim detallari andazalari bilan tanishadilar.
2. Andazalar konstruksiyasini tuzishni o'rganadilar.
3. Andazalarni texnik ko'paytirish usullaridan foydalanib, kiyim detallari chizmasini tayyorlaydilar.

Kiyimni ko'plab ishlab chiqarishda "ariginal" deb atalishi birinchi nusxasini faqatgina bir razmer - bo'y uchun tayyorlaydilar. Qolgan razmer va bo'ylar uchun detallar andazasini o'rtacha razmer bo'y uchun detallarni chiziqli o'lchamlarini kattalashtirishi yoki kichiklashtirish yo'li bilan olinadi.

Texnik ko'paytirish deb, o'rtacha razmer bo'y assortimenti asosida turli razmerlar va bo'ylarning detallar andazasini loyihalash jarayoniga aytiladi.

Texnik ko'paytirish odam gavdasi razmer o'lchamlarining o'zgartiruvchanligini hisobga oluvchi razmerlararo va bo'ylararo o'sish qiymatlari yordamida amalga oshirilishi lozim.

Andazalarni texnik ko'paytirishda quyidagi talablarga rioya qilinishi kerak:

- kiyimning ichki o'lchamlarining odam gavdasi o'lchamlariga to'g'ri kelishi;
- qomat to'zilishini e'tiborga olgan holda, kiyimning yelka qismlarining odamning tanasining tayanch qismlari shakliga mos kelishi;
- kiyimning alohida qismlarining odam gavdasiga dinamikada mos kelishi;
- turli razmer - bo'yli kiyimlarning etalon nusxaning tashqi ko'rinishga mos kelishi.

Ma'lumki, kiyim detallarining razmerlarini o'zgarishi odam gavdasining razmer o'lchamlarining o'zgarishi bilan bog'liqdir. SHuning uchun, andazalarni ko'paytirish asosida ikkilamchi razmer o'lchamlarining o'zgarishining birlamchi razmer o'lchamlariga chambarchas bog'liqlik qonuniyati turishi shart.

Ikkalamchi razmer o'lchamlarining regression bog'lanishi natijasida ko'krak aylanasining o'zgarishi (bo'y=const), nafaqat enlama razmer o'lchamlarini ham o'zgarishiga olib keladi. Va shuning teskarisi, bo'yning o'zgarishi (ko'krak aylanasi = const) bilan nafaqat bo'ylama, balki enlama razmer o'lchamlar ham o'zgarishadi.

Andazalarni texnik ko'paytirishdan maqsad mazkur modelь uchun loyihalanadigan kiyimning barcha razmerlari hamda bo'ylari uchun andazalar hosil qilishdir.

Andazalarni texnik ko'paytirish ishi bilan modelь tuzuvchi tashkilotlar, tikuvchilik korxonalarining laboratoriyalari hamda konstruktorlik byurolari shug'ullanadi.

Andazalarni ko'paytirishning qo'lda bajariladigan bir necha usullar bor; shuningdek, ularni EXM lardan foydlanib avtomatlashtirilgan rejimda ko'paytirish ham mumkin.

Andazalarni ko'paytirishning nur usuli shundan iboratki a) markaz (fokus) sifatida qabul qilingan nuqtadan nur (chiziq)lar chiqariladi; bu nurlar fokusni konstruktiv nuqtalarga tutashtiradi; nurlar (chiziqlar) ning uzunligi hisoblash jadvallaridan olingan orttirish qiymatlari uzunligicha davom ettiriladi.

**Konstruktiv nuqtalarni siljitish belgilari sistemasi**

| Belgilar | Gorizontal yo'nalishda | | Vertikal yo'nalishda | |
|---|---|---|---|---|
| | razmer yoki bo'y katta-lashtirilgan | Razmer yoki Bo'y kichray-Tirilganda | Razmer yoki bo'y kattalash tirilganda | razmer yoki bo'y kichray-tirilganda |
| +(plyus) -(minus) | O'nga CHapga | CHapga O'nga | YUqoriga Pastga | Pastga YUqoriga |

Bu usul sodda bo'lishi bilan birga, u kamchilikka ham ega; bu kamchilik fokus tanlashga taaluqlidir: kosntruktiv nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa, ularni aniqlash shuncha qiyinlashadi. Bu usuldan asosan bosh kiyimlari hamda korsetli (qo'llobli) kiyimlar ayrim detallarining andazalarini ko'paytirishda foydalaniladi.




**Andazalarni texnik ko'paytirish usullari:**
**a) nur usuli; b) gruppalash usuli.**

Gruppalash usuli detallar (baza detalь va chetki katta yoki kichik detalь yoki ikkita chetki detalь) andazalarining ikki komplektini gorizontal va vertikal baza chiziqlar bo'yicha juftlashdan iborat b) Bir nom bilan yuritiladigan konstruktiv nuqtalar to'g'ri chiziqlar yordamida tutashtiriladi va oralik bo'ylar sonidan bir raqami v) proporsional-hisoblash usuli (ya'ni birlik) chegirib tashlangandan keyin (p-1) qolgan songa bo'linadi.

Bu eng aniq usul bo'lib, har qanday shakldagi detallar andazalarini ko'paytirishda qo'laniladi. Mazkur usulning asosiy kamchiligi shuki, bunda mehnat va material ko'p sarf bo'ladi. SHo'nga ko'ra undan nur usuli va proporsional hisoblash usuli uchun orttirish hisoblash jadvallarini tuzish vaqtidagina foydalaniladi.

Proporsional hisoblash usuli gavdaning ulchov belgilari o'zgarishiga qarab, har bir konstruktiv nuqtani vertikal va gorizontal yo'nalishlarda (bo'yiga va engiga) siljitishga asoslangan.

Har bir nuqtaning siljitilishi jadvalda plyus(+) va minus (-) belgilari bilan ko'rsatilgan.

Andazalarni proporsional - hisoblash usulidi ko'paytirish kiyimlarni konstruksiyalash SNIISHP metodikasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Har bir konstruktiv gruppaga tegishli orttirish qiymatlari hisoblash jadvallarini tuzish yo'li bilan aniqlangan, bu maqsadda esa ko'paytirish turi chizilgan.

Turli to’lalik guruhiga kiradigan erkaklarning jussasi bir-biridan farq qilganidek, har xil yosh guruhiga mansub bolalarning jussasi ham bir-biridan farq qiladi. SHo’nga ko’ra kiyim modeli, namunasi, konstruksiyasini yaratishdagi kabi, andazalarni ko’paytirishda ham muayyan to’lalik razmer guruhiga mansub bo’lgan standart jussa asos qilib olinishi lozim.

Andazalarni texnik ko’paytirish jarayoni sermehnat ish bo’lib vaqt sarflashni hamda diqqatlikni talab qiladi. Bunda vaqtni tejash uchun andazani ko’paytirish ishini osonlashtiradigan turli moslamalar qo’llaniladi; ularning eng sodda turi orttirish nuqtalari oralig’i ignalar vositasida ko’rsatib qo’yilgan va uglomerli moslamalar yig’indisidan iborat.

Andazalarni ko’paytirishda "grademaster","mulьti grader" variatori kabi juda sodda asboblardan ham foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda andazalar mashina usulida, ya’ni EXM lar, grafopostroitellar hamda qirquvchi asboblar yordamida ko’paytirilmoqda

.

## TAJRIBA ISHI №17

### Mavzu: YAngi model uchun texnik xujjatlar ishlab chiqish

**Ishning maqsadi** : YAngi model uchun texnik xujjatlar ishlab chiqish usullari bilan tanishish.

**Ishning mazmuni:**

1. Texnik xujjatlar bilan tanishish.
2. YAngi model uchun texnik xujjatlar ishlab chiqishni o’rganish.
3. Ishning tahlili.

**Adabiyotlar:**

1.Koblyakova E.B. «Osnovы konstruirovaniya odejdы» M., 1981.
2.Rogova A.P. «Erkaklar va boalalar kiyimlarini konstruksiyalash asoslari» T., 1988.
3.Kamilova X.X., Hamraeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» T., 2003.

**Asbob-uskunalar:**

Moda jurnallari, millimetr qog’ozi, lineyka, qalam, sirkulь,andazalar

**Ishga tayyorlanish uchun savollar**

1. Texnik hujjat nima.
2. Badiiy konstruksiyalash.
3. Kiyimni loyihalash jarayonining maqsadi.
4. Texnologlar bo’limining vazifalari.

**Uslubiy ko’rsatmalar**

1. Talabalar texnik hujjat bilan tanishadilar.
2. Badiiy konstruksiyalashni o’rganadilar.
3. Kiyimni loyihalash jarayonining tayyorlaydilar.

Agar kiyimni ishlab chiqarish - bu mavjud bo’lgan texnik yozuv asosida uni tayyorlash bo’lsa, shunday yozuvni vujudga keltirish jarayoniga loyihalash deyiladi [3]. Loyihalash bo’lg’usi ob’ektni mo’ljallanishi va uning xossalariga qo’yilgan talablari ifodalangan boshlang’ich yozuv mavjud bo’lgan holdagina boshlanadi. Boshlang’ich yozuv texnik topshirik (TT) shaklida rasmiylashtiriladi.

Texnik topshirik bir qator loyihaviy jarayonlar va muolajalarni amalga oshirish yo’li bilan loyihaviy konstruktorlik hujjatlarga (LKX) aylanadi va bu LKX konstruktor va ishlab-chiqarish o’rtasida vositachi rolini o’ynaydi.

1971 yilda sobiq Sovet ittifoqida qabul qilingan Konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi (ESKD) loyihaviy ishlarni tartibga solish maqsadida qilingan bo’lib, Davlat standartlarining kompleksidan iboratdir. Bu standartlar' loyihaviy-konstruktorlik hujjatlarni tuzish, rasmiylashtirish va ular bilan muomalada bo’lish to’g’risida yagona uzviy bog’langan qoidalarni ifodalaydilar.

Muhandislik va badiiy-konstruktorlik prinsiplarga asoslangan holda, konstruktorlik hujjatlarning yagona tizimi (KXYAT) barcha sanoat mahsulotlarini loyihalashning tipik bosqichlarini aniqlaydi.

## SANOAT MAHSULOTLARINI MUHANDISLIK VA BADIIY KONSTRUKSIYALASHNING PRINSIPLARI

Badiiy konstruksiyalash - bu sanoat mahsulotlarini loyihalashning zamonaviy ijodiy usulidir. Badiiy konstruksiyalash-kollektivli ijodiy jarayon bo'lib, unda muhandislik, ergonomik va badiiy konstruksiyalash elementlari organiq mujassamlashgan. YUqori sifatli sanoat mahsulotlarining yangi namunalarini badiiy ishlab chiqarish bir qator mutaxassislarning hamkorligida amalga oshiriladi: konstruktor-muhandis, rassom-dizayner, iqtisodchi, psixofiziolog, san'atshunos va hokazolar.

Muhandislik konstruksiyalash mahsulotning konstruksiyasini, ya'ni texnik to'zilishini aniqlaydi.

Tikuvchilik korxonasining muhandis-konstruktorining asosiy vazifasi - yangi kiyimda maksimum qulayliklar va komfortni odamga ta'minlash, uni ishlab chiqarishning texnologikligi va tejamkorligini va ekspluatasiyalash davrida chidamliligini ta'minlashdan iborat.

## SANOATDA KIYIMNI LOYIHALASH MAZMUNI

Agar tanlangan yangi model uchun sanoatda mos keladigan baza asos konstruksiyasi topilmasa, unda kiyimni loyihalash quyidagi 5-ta bosqichlardan iborat bo'ladi :

### I.TEXNIK VAZIFA TAYYORLASH.

Birinchi bosqichning asosiy ishlari: kiyimni loyihalash shart-sharoitlarining tahlili, kiyim konstruksiyasiga qo'yiladigan talablar programmasini ishlab chiqarish, o'xshash modellar tahlili, ilmiy axborot va patent hujjatlarini o'rganish, loyihalashtirayotgan kiyimning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashdan iboratdir.

### P. TEXNIK TAVSIYA

Ikkinchi bosqichning asosiy ishlari: tanlangan model-analoglarning tahlili, talablarni aniqlash, konstruksiya kiyimga qo'yiladigan variantlarini tayyorlash, maketlar tayyorlash, ularni va optimal variantini tanlashdan iboratdir.

### III. ESKIZLI LOYIHALASH

Uchinchi bosqichning asosiy ishlari: loyihalashtirilayotgan kiyim variantiga kompozision va konstruktiv ishlov berish, model nusxasini tayyorlash, uni dinamikada yoki mikroklimatik kamerada sinash; kiyimning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashdan iboratdir.

### IY. TEXNIK LOYIHALASH

To'rtinchi bosqichda texnik hisoblashlar, kiyim detallari baza asosi konstruksiyasini aniqlash, model nusxasini tayyorlash va uni oxirgi sinovlardan o'tkazish, aniq sifat ko'rsatkichlarini tanlash kabi ishlar olib boriladi

### Y. ISHCHI HUJJATLAR TAYYORLASH

Oxirgi bosqichda loyihalashtirayotgan kiyim uchun texnik tavsif va andazalar komplekti tayyorlanadi.

Kiyimni loyihalash jarayonini ikki boshqaruvchi va boshqaradigan kichik sistemachilardan to'zilgan sistemaga o'xshatish mumkin. Texnik vazifa bosqichi bu erda boshqaruvchi, qolgan barcha loyihalash bosqichlari esa-boshqariladigan sistemaga kiradi. Mahsulotga qo'yiladigan texnik talablar va texnik vazifani ishlab chiqarish natijasida hosil bo'ladigan sifat ko'rsatgichlari asosida vujudga keladigan boshqariladigan ta'sir hisobidan sistemaning ishlashi amalga oshiriladi.Sxemada quyidagi shartli belgilar qabul qilingan: 1 - boshqaruvchi kichik sistema; 2-boshqariladigan kichik sistema; Xo-boshlang'ich ma'lumotlar; X-hosil bo'ladigan loyihaviy-konstruktorlik hujjatlar; U1-2 - umumiy boshqaruvchi ta'sir; U1-2-1, U1-2-2, U1-2-3, U1-2-4 – xususiy boshqaruvchi ta'sirlar; 02-1 - umumiy axborot beruvchi ma'lumot; O2-1-1,O2-1-2,O2-1-4xususiy axborot beruvchi ma'lumot.

Kiyimni loyihalash jarayonining maqsadi deb, son va sifat ko'rsatgichlari aniqlangan mahsulotning loyihasini ishlab chiqarishga aytiladi.

Kiyimni loyihalash maqsadlarini qo'yish sifati mavjud bo'lgan mahsulot sifatidan past bo'lmagan, kiyim loyihalanayotgan kiyim sifatiga etishish bilan bog'liq. Kiyimni loyihalash maqsad va vazifalariga yangi fikrlarni generasiyalash va etarli bo'lgan axborot hajmini o'zlashtirish kabi talablar qo'yiladi.

**Kiyimni sistemali ishlab chiqarish**




Ishlab chiqarishni konstruktorlik tayyorlash vazifalariga modellar kolleksiyasini tanlash va muhokama etish, yangi modellarning ishlab chiqarish dasturini rejalashtirish, ularning konstruksiyasini loyihalash, mehnat sig'imini, rentabelligini va tannarxini aniqlash kiradi.

Texnologik tayyorlash vazifalariga muhandislik ta'minot har bir alohida modelni yoki modellar seriyasini materiallar va furnituraning kerakli artikullari va ranglar gammasi bilan komplektlash.

Korxonada konstruktorlik tayyorlash, tarkibi 4 guruh mutaxassisliklardan iborat bo'lgan, badiiy konstruktorlik byurosi tomonidan amalga oshiriladi: modellashtirish, konstruksiyalash, texnologik va normalash guruhlari.

Modellashtirish bo'limi chiqarilayotgan mahsulotning badiiy-estetik darajasini aniqlaydi. Bu bo'limda rassom-modelьerlar va konfeksionerlar ishlaydilar va ularga bosh rassom rahbarlik qiladi. Bo'limning asosiy vazifasi sanoat kolleksiyasini eskizli loyihalash va zamonaviy modellashtirish, konstruksiyalash va taraqqiy texnologiya darajasiga javob beruvchi modellar namunasini yaratishdan iborat.

Konstruktorlik bo'limini bosh konstruktor boshqaradi. Bo'lim vazifalariga yangi modellarning sanoat kolleksiyalarining konstruksiyasini texnik vazifaga binoan ishlab chiqarish va yangi eng modali modellar konstruksiyasini kichik seriyalar bilan chiqarish kabi ishlar kiradi. Bo'lim konstruktorlari barcha texnik hujjatlarni tayyorlab komplektlashadi, yangi modellarni texnologik oqimga yuborish uchun tayyorladilar.

Texnologlar bo'limining vazifalari taraqqiy mehnat va energiya tejamchi texnologiyalarni ishlab chiqarish, modellarning assortiment seriyasining unifikasiyalashgan texnologiyasini ishlab chiqarish, yangi strukturali materiallar xossalarini o'rganib, ishlab chiqarishga kerakli tavsiyalar berishdan iborat.

Normalash guruhi asosiy, oralik, bezak materiallar va furnitura sarfini aniqlaydi, materiallar sarfini analiz qiladi va ularni tejashga qaratilgan ishlarni amalga oshiradi.

**LOYIHAVIY-KONSTRUKTORLIK HUJJATLAR TARKIBI.**

Yangi modelning konstruktorlik hujjatlari texnik yozuv va andazalar komplektidan iborat.

Texnik yozuv quyidagi hujjatlarni o'z ichiga oladi: 1) modelning texnik ta'rifi (yozuvi), model eskizi; 2) modelning badiiy bezalishining ta'rifi; 3) buyumga qo'yiladigan texnik talablar; 4) materiallar spesifikasiyasi, konfeksion xarita; 5) detallar va andazalar spesifikasiyasi; 6) texnologik ishlov berish haqida jadvallar; 7) texnik darajasi xaritasi; 8) andazalar va tayyor kiyim namunasining o'lchamlari jadvali; 9) qabul etish, navlash, markirovkalash va hokazo;10) normativ-texnik hujjatlar ro'yxati.